

O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
«PEDAGOGIKA VA GUMANITAR FANLAR» KAFEDRASI

«PEDAGOGIKA» fanidan

Ma’ruzalar matni



NAVOIY – 2010 Y.

Ushbu ma'ruza matnlari O'zResOO'MTV tomonidan 10 avgust 2006 yilda tasdiqlangan «Pedagogika» fanidan namunaviy dastur asosida tuzildi va «Pedagogika va gumanitar fanlar» kafedrasining 2010 yil 26 avgustdagi №1 yig'ilishida muhokama qilindi.

Kafedra mudiri :

p.f.n. O.R.SHamiyeva

Tuzuvchi:

Sattorova G. N.

Taqrizchilar:

NDKI p.f.n. Po'lotov

NDPI p.f.n. dots. I.J.Jalilov

1-MAVZU

Pedagogikaning predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. Jamiyat va olam rivojida pedagogikaning mohiyati va olamning garmonik muvozanatida inson omili.
2. Pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.
3. Pedagogikaning va asosiy tushunchalari (kategoriyalari).
4. Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda pedagogikaning tutgan o'рни.

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar :

Ma'naviyat, aqliy, axloqiy, amaliy, jismoniy sifatlar, tarbiya, ta'lim, ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu ish, predmet, ob'ekt, etnografiya.

Ўzbekiston Respublikasining «Ta'lim tōg'risida»gi qonunida (1997 y.) ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti soyasida ustuvor deb e'lon qilinishi Pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni zamon ruhi talabi bilan uyg'unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etilib qolmasdan umumjahon ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ulkan hissa bōlib qōshilmoqda. Chunki jahonda hali xorijiy davlatchilik bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribalarida ma'naviyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg'un holda rivojlantirilmayapti. Prezidentimiz ma'naviyatni aql, axloq, ongli amaliy faoliyatda shakllanib rivojlanishi haqida gapirib: *“Ma'naviyat - taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qōl bilan mehnat qilishi kerak”*, degan edilar.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, Pedagogika ham fan sifatida shakllanib, o'zining predmetiga ega bo'ldi. Boshqa fanlar kabi Pedagogika hamfan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi. Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Mutafakkir A.Avloniy ta'kidlaganidek, *“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot: yo najot, yo halokat: yo saodat, yo falokat masalasidir”*. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat hammavjud bo'lgan.

Insonni dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug'ilgandan keyin o'z zamonasining taraqqiyotidarakasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni tarbiya olishi kerak. Bu jarayonda katta avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, ya'ni yangi tug'ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga etishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Bu tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari etuk, barkamol shaxslarni etishtirish ehtiyoji hamortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tadbiiq qilish jarayonida Pedagogika fani paydo bo'la boshladi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqidabilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi.

Pedagogika atamasi hamqadimiy bo'lib, *“bola etaklovchi”* degan ma'noni bildiruvchi grekcha *“paydogogos”* so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini, ya'ni qullarni *“pedagog”* (bola etaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

Inson yaratilishi, paydo bo'lishi zahotiy oq ilm va tarbiyaviy sifatlar uning yashashi, hayot kechirishi uchun eng zaruriy shart va vositalar ekanligini anglab boradi. Shuning uchun insoniyat jamiyatning ilk ko'rinishlaridanoq tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga ehtiyoj tug'ildi,

desak biz tarbiyani faqatbir tomonini, ya'ni boshqalarni yana hamxususiylashtirib, agar yoshlarni tarbiyalash, desak tarbiya tushunchasiga juda hamtor qaralgan bo'ladi. Chunki tarbiya eng avvalo har bir insonni o'ziga qaratilgandir. Harbir kishi doimo hamaqliy, tarbiyaviy, jismonan takomillashib, shakllanib boradi. Ayrim kishilar bu fikrga qo'shilmasliklari mumkin. Chunki bunda jamiyatdagi o'rta, katta avlodning tarbiyasida kamchiliklar, etishmovchiliklar bor ekan-da, degan xulosa chiqarmasligi kerak. Chunki olamning moddiy-ma'naviy tuzilishi, qurilishi, uning rivoji, insonning moddiy - ma'naviy yashash sharoiti, imkoniyatlari, uning aqliy, axloqiy, jismoniy holati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun tabiatning inson yashashi, mavjudligi, baxtiyorligini ta'minlash imkoniyatlari, uning aqliy-axloqiy, jismoniy rivoji, o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Tabiatdagi, jamiyatdagi muammolar insoniyatni ma'naviy-aqliy rivojlanishiga yo'naltirib unga o'zining yangi-yangi xazinalarini ochib beraveradi.

Tarbiyani eng avvalo insonning o'ziga qaratilganligi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan butun dunyo hamjamiyati tan olgan, qadamba-qadam amalga oshirilayotgan "o'zbek modeli"da juda to'g'ri belgilandi. Dunyoda birinchi bor insonni diqqat-e'tibori uni o'zligini anglashga qaratildi. O'zligini anglash birinchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bõlisa, ikkinchidan uning o'ziga xos milliy-insoniy sifatlarini ochib beruvchi etnik, ma'naviy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Yuqorida sanab o'tilgan ikki sifat komil inson sifatning asosini tashkil etadi. Chunki komil inson sifatlarini tarbiya sohasidagi ilmlarni xulosalab, mujassamlashtirilsa, ular asosan uchta:

1. ezgu niyat, fikr:
2. ezgu so'z, xushmuomala:
3. ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratdir.

Shu yuqoridagi uch sifat o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadidan iboratdir. Bu bosh maqsad insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy, axloqiy-amaliy o'quv, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilm, bilim, ko'nikmalar hosil qilishdan iborat bo'lgan pedagogika fanining zamonaviy fan asoslarini kengayganligini ko'rsatadi.

Pedagogika fanining predmeti, o'qitishning ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Özbekiston Respublikasining ta'lim qonunida -ta'lim davlat ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb belgilab qo'yilgan.

Ta'limning, o'qitishning vazifasi fuqarolar, yoshlarning eng asosiy Konstituciaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada baxtiyor faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

Insonshunoslik fanlari tizimida pedagogikaning tutgan o'rni shu bilan belgilanadiki, u shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarbiyalash, ma'lumotli qilish va o'qitishi (ta'lim berishi) qonuniyatlari borasida tadqiqot ishlarini olib boradi. Shu sababli, rivojlantirish, shakllantirish, ta'lim va tarbiya, ma'lumot pedagogikaning asosiy kategoriyalari yoki tushunchalari deb ataladi.

Shaxs turli omillar ta'sirida shakllanadi. Tarbiya esa shaxsni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillardan biridir. Katta yoshlilar turli vositalar va usullar orqali ma'lum maqsadni ko'zlagan holda o'z tarbiyalanuvchilarida ma'lum xislatlarni hosil qilish va rivojlantirishni xohlaydilar. Shunday qilib, tarbiya shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatdir.

Bu jarayonda shaxsning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar, omillar hamda tarbiyalanuvchilarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olinadi. Tarbiya jarayonida mikromuhitning ijobiy ta'siridan to'la foydalaniladi va salbiy ta'sirini zaiflashtirishga harakat qilinadi. Tarbiya bir joyda tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatadigan barcha buginlar birlashib, ahillik

bilan ishlashga erishiladi va har bir shaxs o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatiga ertaroq ega bo'ladi. Tarbiya aksariyat holatlarda keng ma'noda ishlatilib ta'lim, ma'lumot rivojlanish jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini hamanglatadi. Ularning natijalarini o'zida aks ettiradi.

Asosiy pedagogik tushunchalardan yana biri ta'lim, ya'ni o'qitish, bilim berish tushunchasidir. Ta'lim deganda, biz va insoniyatni ilmiy bilimlar hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish qobiliyatlarini o'stirish, tafakkurlarini shakllantirish jarayonini tushunamiz. Ta'lim o'z darajasi va vazifasiga qarab maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limdan iborat bo'lib, ular uzluksiz ta'lim tizimini tashkil qiladi. Kelajakdagi ixtisosligidan qat'iy nazar, har bir kishi uchun bilim ko'nikma va malakalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarda beradi. Kasb egallash uchun zarur bilim ko'nikma va malakalarni oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga qarashli o'quv yurtlarida oladilar. Ta'lim maxsus tayyorgarlik ko'rgan, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar rahbarligida amalga oshiriladigan bilim berish jarayonidir.

Ta'lim pedagoglarning (bilim berish) faoliyatidan va o'quvchi-talabalarning (bilim olish, o'qish) faoliyatlaridan iborat qo'shaloq jarayondir.

Birgalikdagi faoliyat orqali yoshlar ilmiy bilimlar bilan qurollanadi. Buning natijasida ularni ijodiy qobiliyatlari har tomonlama shakllanadi. Ma'lumot ta'lim-tarbiya jarayonining natijasi orqali to'plangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi va shakllangan ma'naviy fazilatlar majmuidir.

Ma'lumot olishning to'g'ri va ishonchli yo'li davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim beradigan, aniq maqsadli rejalar, dasturlar asosida o'quv yurtlarida tashkil qilinadigan ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, rivojlanish, shakllanish uyg'unlashgan yagona jarayondir. Unda o'qituvchi-tarbiyachi rahbarlik qiladi. Pedagogika uzoq tarixiy jarayonda shakllanar ekan, hozirga kelib ilmiy bilimlarni mustaqilbir tarmog'i sifatida, fan sifatida shakllandi. O'zining ilmiy-nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada pedagogika fanlari tizimi, ya'ni uning tarmoqlari vujudga keldi. Yaqin vaqtgacha falsafaning bir tarmog'i hisoblangan pedagogikaning mustaqilyangi yo'nalishlari yaratildi. Jumladan, Pedagogika tarixi mustaqiltarmoq sifatida, Pedagogika fanining tarixan rivojlanishi o'zida aks ettiriladi. Bunda o'tmishdagi ilg'or pedagogik g'oyalarni paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning bugungi kundagi ahamiyati, merosdan foydalanishning zaruriyati haqidafikr yuritiladi.

Pedagogika fanlari tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshlariga qaratilgan tarmoq pedagogikalar mavjud. Jumladan: maktabgacha ta'lim pedagogikasi, umumiy ta'lim pedagogikasi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, pedagogik menejment, davolash pedagogikasi, gerontopedagogika, harbiy pedagogika, yangi pedagogik texnologiyalar kabilardir. Bu tarmoq pedagogikalar maktabgacha ta'lim muassasalarida umumiy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini o'rganadi.

Bulardan tashqari difektologiya deb ataluvchi maxsus pedagogika hamshakllandi va maxsus o'quv maskanlarida o'qituvchi, tarbiyachilar tayyorlashda surdopedagogika (soqov bolalarni o'qitish va tarbiyalashda), tiflopedagogika(ko'zi ojiz bolalarni o'qitish), oligofrenapedagogika (aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish) logopediya (nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarni o'qitish) masalalari bilan shug'ullanadi. Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq fanlarni o'qitish va o'rganishning qonuniyatlari o'rganuvchi uslubiyot fanining hamxizmatlari beqiyos kattadir. Harbir fanni o'qitishnig o'ziga xos yo'l-usullari mavjuddir. Ba'zan bu fanni xususiy metodika, ya'ni uslub deb atashlari hambejiz emas. Hozirgi kunda o'quv yurtlarida tarix o'qitish, matematika o'qitish, til o'qitish uslubiyoti fani o'qitilmoqda.

Keyingi yillarda, oila pedagogikasi, kasb-hunar ta'lim pedagogikasi, harbiy pedagogika, sport pedagogikasi kabilar shakllanmoqda. Pedagogika umumiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi bilan uzviy bog'langan. Psixologiya shaxsning turli yoshdagi psixik rivojlanish qonuniyatlarini, ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixikasining o'zgarish mexanizmini tushuntiradi. Shunday ekan, ta'lim-

tarbiya jarayonida pedagog tarbiyalanuvchilarning psixik rivojlanishini, shaxsiy sifatlarini o'rganish lozim. Shundagina samarali ta'sir ko'rsata oladi.

O'zbekistonmustaqillikka erishgandan so'ng o'z tarixini, jumladan pedagogika tarixini o'rganish uchun keng yo'l ochdi. O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini hayotga tadbqiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda. Tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayon ekanligini insoniyat butun hayoti davomida tarbiya bilan shug'ullanganligiga ishonch hosil qilamiz. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, tarbiya haqidagi g'oyalar eramizdan oldingi VI asrda shakllanganligi haqidama'lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g'oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta'limoti uning muqaddas kitobi "Avesto"da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Kishilik tarixida islom ta'limotining tarbiya haqidagi g'oyalarining shakllanishida ahamiyati cheksizdir. Qur'oni Karim va hadisi Shariflarda, musulmon ahlining dunyoqarashi falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarini shakllantirish yo'llari bayon qilingan.

Mamlakatimizning yaqin o'tmishidagi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, rus va sovet imperiyasi ta'sirida o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf-odatlarini, an'ana, umuminsoniy qadriyatlarni bilish va o'rganish uchun kurashgan Fitrat, Munavvar Qori, elbek, Qodiriy qatl qilindi. Qolgan vatanparvar allomalarimiz qamaldi. Ammo qatag'onlik davrida hampedagogik merosni o'rganish to'xtamadi. Navoiy, Beruniy, Avloniy kabilarning ijodi o'rganildi, o'zbek xalq pedagogikasi yaratildi.

endi pedagogika ta'lim va tarbiyada hayot jarayonining hamma sohalarini, jabhalarini qamrab olmasa ham, u o'ziningkomil inson tarbiyasida juda katta asosiy imkoniyatlariga ega bo'lgan asosiy ijtimoiy fan mavqeini egallay olmagan bo'ladi. Shuning uchun hamyangi ta'lim qonunida va mutaxassislar tayyorlash milliy dasturida ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Pedagogika fanining metodologiyasida, mazmunida, tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllarida, komillik darajasi, sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalarda o'z aksini topishi lozim.

Pedagogika fanida Barkomol avlodni shakllantirishdek ulug'vor vazifa har bir o'quv fanini o'qitishda "milliy ta'lim modeli"dan kelib chiqib, har bir mavzu, tushunchalarning ta'limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi funkciyalarini olishning metodologik, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, ta'lim nazariyasi va amaliyoti, ta'lim tizimini boshqarish, pedagogika tarixiga doir bo'limlarida asoslab beriladi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogikaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Pedagogikaning ob'ekti va predmetini tushuntirib bering.
3. Pedagogikaning kategoriyalariga nimalar kiradi?
4. Insonlar ma'naviyatining shakllanishida pedagogikaning roli.

2-MAVZU

Milliy g'oya, milliy mafkuraning pedagogik asosi . Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Milliy g'oyaning va milliy mafkuraning ma'nosi va pedagogik mohiyati.
2. Insonning nodir betakrorligi.
3. Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari haqidatushuncha va ularning tasnifnomasi.
4. Ilmiy-pedagogik tadqiqot uslublarining ilmiy manbalarni o'rganishdagi o'rni.

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar:

Tarbiya jarayoni, ilmiy-pedagogik tadqiqot, metod, mutaxassislik, pedagogik kuzatish, suhbat, test, so'rovnomalar, hujjatlarni tahlil qilish, eksperiment, statistika ma'lumotlar, sociologik tadqiqotlar va boshqalar.

Prezidentimiz tomonlaridan ma'naviyatni iqtisoddan ustuvor deb e'lon qilinishi milliy davlatchiligimizning, milliy mafkuramizning asosini tashkil qiluvchi ulug'vor milliy g'oya edi. Bu milliy g'oya chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lib, juda to'g'ri tanlanganligini dunyoviy, diniy fanlar va hayot isbotlamoqda hamda butun dunyo hamjamiyati tan olmoqda.

Milliy g'oya, milliy mafkura har kungi hayot sharoitlaridan kelib chiqishi bilan birga har bir fuqaroning, davlatning, millatning istiqbolidan hamkelib chiqishini I.A. Karimov «Fidokor» gazetasining muxbiri bilan «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» nomli muloqotlarida asoslab bergan edilar.

Ma'naviyat – arab tilidagi “ma’no” yoki “ma’naviyatun”, “ma’noi g'oya” so'zlaridan olingan bo'lib, “ruhiy holat” degan ma'noni anglatadi.

G'oya-insonlarning ezgu niyatlar, fikri asosidagi amalga oshirilayotgan jarayonlar, ishlar, istiqbol rejalari, tamoyillaridan iborat.

Mafkura – muayyan tuzum davrida insonlarni davlat, jamiyat o'z-o'ziga, xalqi, olamga munosabatlari va ular rivojining ma'naviy-ilmiy tizimidan iborat.

Milliy mafkura – xalqimizning ma'naviy-ilmiy mentaliteti, g'oyalari asosidagi amalga oshirilayotgan ishlar, jarayonlardagi tutayotgan yo'li, davlatga, jamiyatga, olamga, o'z-o'ziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan iboratdir.

Maqsadimiz aniq- mustaqil, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati asosida xalqimizni farovon hayotga erishtirish, shu maqsadga erishish yo'lida fikr erkinligi, faoliyat ozodligi asosida insonning asl qadri mohiyatni ro'yobga chiqara borib, “inson xazinasini ochish”. Fikr va faoliyat erkinligi aslida insonning nodir va betakrorligiga asoslangan. Chunki insonning o'zligini anglash, uni nodir va betakrorligini anglashdan boshlanadi. Insonning nodir va betakrorligini anglash birinchidan, uning o'zida yashiringan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun asos bo'lib, istakni shakllantirsa, ikkinchidan, unda boshqalarni hambetakror, ulug' siymoligini anglash orqali insonlarni hurmat qilish, ulug'lashni keltirib chiqaradi. Uchinchidan, boshqalarning hamnodir, betakrorligiga ishonish, ularni hurmatlash qalbni g'arazdan poklaydi. To'rtinchidan esa, har bir kishining betakrorligini anglash asosida kishilarda boshqalar bilan muomala va munosabatning moddiy, ilmiy, ma'naviy-madaniy manfaat kasb etishni insoniyat ijtimoiyligiga tabiiy zarurat tug'iladi. Shu yuqoridagi sifatlarning shakllana borishi komillik sifatlarining asoslaridan iboratdir.

Komillik sifatlarini to'laqonli shakllantirish uchun esa faqatnasihatlar, da'vatlar etarli emas. Insonning ma'naviy faolligi amaliy-kasbiy faolligi bilan uyg'unlashganda barkamollik sifatleri tabiiy shakllanadi, rivojlanadi. Aynan ana shu yuqoridagi tushunchalarni to'g'ri anglash ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to'g'ri tanlashga yordam beradi. Chunki ta'limning sub'ektivlik, demokratik, huquqiy, insonparvarlik asoslari insonlarning nodir, betakrorliklarini ro'yobga chiqarishdir.

Yuqoridagi sifatlar inson ma'naviyatini tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Harbir inson to'kis hayotga to'la imkonlar bilan yaratilgan. Ammo har bir kishi o'ziga xos o'quv, qobiliyat va imkoniyatlarga ega. Demak, har bir kishi o'zining shaxsiy hayot yo'lini topa olsa, shu vaqtda uning hayoti jo'shqin, faoliyati ijodkor, mehnati unumli, foydasi mo'l bo'ladi. Kishi aslida haqiqiy baxtivorlikka mehnat jarayonida erishadi. Chunki agar u o'zining hayot yo'lini topsa, shaxsiy ijodiy ishtirokida o'ta boshlaydi. Bu vaqtda unga g'oyibona ruhiy madad beriladi, moddiy-ma'naviy yaratuvchanlik uning istiqbolli yangi g'oyaviy fikrlar uni amaliy-ijodiy yo'llarga chorlay boshlaydi. Shuning uchun ota-ona, oila a'zolari, bog'cha, maktab, umumiy ta'lim-tarbiya muassasalari har bir bolani uquvi, qiziqishi, qobiliyatiga asosan kasb egallashga mas'uldir. Insonlarning nodir va betakrorligini talabalarga, yoshlarga dunyoviy diniy ilmlarni uyg'unligida tushuntirib berish ma'naviy zarurdir. Shu vaqtda yoshlar ayrim g'ayridiniy oqimlar aslida g'ayriilmiy ekanligini ongli tushunadilar. Ha, haqiqatan, har bir kishi azaliy yaxshi taqdir bilan yaratilgan. Harbir kishi Parvardigori olam bu dunyoga ezgu niyatlar bilan, ma'lum o'ziga xos ulug' maqsad va vazifalar bilan yaratilgan. Ammo inson asli yaratilishidan ozod va erkin. Insonning ozod va erkinligi shunchalikki, xatto uning imon e'tiqodi Olloh taolo tomonidan majbur qilinmaydi. Bu haqda Qur'oni karim Shuaro surasining 4 oyatida "... Zero iymon-e'tiqod nochor, noilojlikdan emas, balki qalb qanoati bilan ixtiyoriy bo'lishi lozimdir", deyilgan. Chunki kishilar bu ulug' xislatlar faqat insonlar foydasi uchunligini, ularga amal qilish insonlar uchun hamma'naviy, hammoddiy manfaatlarning asosi ekanligini ongli tushunib, ularga amal qilsalar bu ishlar ular uchun huzur-halovat va baxtivorlik bag'ishlaydi. Inson ma'naviy-ruhiy siymodir. Uning tanasi moddiy, latif va ruhiy qismlardan iborat. Moddiy, ya'ni biologik tanani latif bioenergetik maydon - tana o'rab olgan. Bioenergetik tana insonning moddiy tanasidagi hamma hayotiy jarayonlarni uyg'unlashtirib turuvchi hayotiy energiya manbaidir. Ammo hayotiy jarayonlar insonning ruhiy quvvati-bioenergetik tanasi yordamida boshqariladi. U oliy nerv sistemasining funkciyasi bo'lib, olam bilan hamma vaqt uzviy aloqada bo'ladi. Ong osti har bir kishilarning taqdiri, yo'li, oliy maqsadi va ezgu niyatlar asosidagi hayot modeli. Hozirgi ilmiy axloqiy asoslarga ko'ra u homila uch oyligidayoq beriladi. endi uning rivoji ota-onaga, oiladagi muhitga bog'liq.

Dono xalqimiz, ota-bobolarimizning "xudo qalbingda bo'lsin, bolam", degan gaplari bejiz emas. Shuning uchun asosiy manbalarda, vijdon har bir kishining qalbidagi xudodir, deyiladi. Kishi hayotidagi qilgan ishlari bo'yicha vaqti-vaqti bilan o'z vijdoni oldida hisob berib turadi. Bu muloqot haq muloqot bo'lishi lozim. Ayrim vaqtda nohaq ishni haq deb isbotlash o'z vijdonini, bu esa xudoni aldash bilan teng kuchlidir. Bunda ong osti (haqiqat) ishga tushib kishining ongi va ong osti orasida nomutanosiblik boshlanib, kishini ruhiy xastalikka olib keladi. Ruhiy xastalik esa jismoniy xastalikka olib keladi, ayrim hollarda boshqa ko'ngilsiz voqealarga olib kelishi mumkin.

Ong osti. Dunyoviy va hayotiy haqiqat asosidagi inson shaxsiy faoliyatining ma'naviy-ruhiy yo'li.

Inson ongi - uning idroki, aqli orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Faxmlash-anglash – biror haqiqatni qalban, ruhan fikriy sezish.

Inson fikri o'z ongi va idroki asosida hayoti hamda dunyoviy narsalar, jarayonlar haqidagi mushohadaviy faoliyat.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai-nazardan amal qilishdir.

Inson qalbi shaxsiy ong, ma'naviyat uzviyligi asosida insonni hissiy va amaliy faoliyatga undovchi kuch. U vijdon, ong, fikr bilan uyg'unlashib qalb nigohi, ko'zi va quvvatiga aylanadi.

Inson ruhi. Insonni har qanday to'siqlardan olib o'ta oladigan, uni ulug' ezgu ishlarga boshlovchi ma'naviy quvvat.

Biz bu ma'naviy-ruhiy sifatlarni alohida ta'riflash orqali tushunish uchun harakat qilgan bōlisak hamular aslida uzviy bog'liqdir. Inson eng avvalo ruhiy-ma'naviy siymo. Shuning uchun

kishi o'zininghar bir ishidan ma'naviy-insoniy qanoat hosil qilishi kerak. Ma'naviy-insoniy qanoat esa ong, qalb, ruh va faoliyat uyg'unligidan sodir bo'ladi. Bu har bir kishiga xos bo'lgan ichki uyg'unlikdir. Ichki uyg'unlik kishini o'z ishidan qanoatlanishiga olib keladi. U o'zidan mamnun bo'ladi. Ichki ma'naviy-ruhiy garmoniya insondagi biologik-fiziologik hayotiy garmoniyaning asosidir. Bu o'z navbatida tan sog'ligi va ruh tetikligidir. Insondagi ichki garmonik muvozanatga katta yordam beradi. Chunki inson tashqi ma'naviy-ruhiy olam bilan juda uzviy bog'liq bo'lib, aslida uning bir ajralmas bo'lakchasidir.

Inson, ma'naviy-ruhiy butun olam, koinot bilan uzviy garmonik bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik hamma vaqt ma'naviy-ruhiy muvozanatdadir.

Nurning yorug'lik oq rang sifatlarning tuzilishi binafsha, havo rang, yashil, sariq, olov rang, qizil ranglardan iborat bo'lib, koinotdan kelishi etti dunyo bilan insoniyatni, moddiy olamni uzviy bog'lab turadi.

Tabiatda kamalakning ettita rangini bir necha marta kuzatgansiz. Kamalakning har bir rangi etti osmonning ranglari bo'lib, oq nur rangi esa ularning majmuasi orqali butun olamni garmonik uzviyligini ta'minlaydi. Xuddi shunday etti osmonning har biriga mos musiqa ovozi mavjud. Moddiy olam, insoniyat yana bir ma'naviy-ruhiy sifat orqali uzviy garmonik bog'liqdir.

Har bir kishi o'ziga xos o'quv, qobiliyat va xarakterga ega bo'lib, uning nodirligi va betakrorligini zamonaviy insonshunoslik fanlari hamisbotlab berishmoqda. Demak, yutuq va muvaffaqiyatlarning birinchi garovi har bir kishining o'z o'quvi, qobiliyati va qiziqishlariga doir faoliyat, hayot yo'lini hunar, kasb tanlashidadir. Yutuqning ikkinchi garovi shu o'ziga mos tanlangan hayot yo'lidan donolik, aql bilan faoliyat ko'rsatish, eng ko'p moddiy va ma'naviy mahsulot olishdadir. Aql bilan faoliyat ko'rsatish esa o'zi egallayotgan soha bo'yicha istiqbolli ma'naviy fikr yuritishdadir. Ha, soha bo'yicha istiqbolli ma'naviy fikr inson yutug'ining uchinchi garovidir. Agar orzu-havasdan qalb poklik bilan ezgu niyatlarga yo'llanmagan bōlisa, ong va fikr rivoji ular uchinchi bioenergetik tanadan nariga o'ta olmaydi. Agarda orzu-havaslar qalbi poklik bilan ezgu niyatlarga yo'llangan bōlisa, ma'naviy-ruhiy tananing (ong osti) ishga tushib, ong va ong osti mutanosibligi hosil bo'ladi. Bunda insonning bioenergetik quvvati optimallasib, katta kuch va qudratga ega bo'ladi va bunday kishilarga g'oyibona sifatlari darvozasi ochiladi. Bunday kishilarga intuitiv fikrlar ALLOH TAOLO tomonidan hidoyat va vahiyalar berila boshlaydi. Haqiqiy taqdir yo'li endi ochiladi. Bunday ma'naviy-ruhiy bioenergetik quvvat uchun insoniyatga to'rtinchi dunyoga nazarlar dunyosidan o'tishga ruxsat qilinadi. Chunki insoniyatga olamga xavf soladigan niyatlar uchun to'rtinchi dunyodan nariga yo'l berkitiladi. Demak, qalbi poklik va ezgu ma'naviy insoniy niyatlar ong va fikr rivoji hamda faoliyat yutug'ining asosidir. Ong, fikr, faoliyat uyg'unligi esa ma'naviy-ruhiy siymo bo'lgan insonning asl mohiyati ochilsa ishga tushadi. Insonning ma'naviy-ruhiy mohiyati esa uning ma'naviy-moddiy mahsuldorligidir.

Moddiy-ma'naviy mahsuldorlik insonning aqliy amaliy kamoloti bilan bog'liq holdabosqichma-bosqich o'sib, fikr ma'naviy-ruhiy sifatlari bilan uyg'unlashsa, birinchi, ikkinchi va uchinchi tanalarda, to'rtinchi, beshinchi tanadan hamo'tib, oltinchi va ettinchi tana beshinchi, oltinchi va ettinchi dunyolarga uyg'unlashganda soha bo'yicha kashfiyotlar, yangiliklar, yangi texnologiyalar, texnik mahsuliy g'oyalarga yo'l ochiladi. Faoliyat qaysi sohada bōlisa ham, dehqon, ishchi, kosib, xizmatchi umuman hamma kasb-hunaralarda hamfaoliyat amaliy-ijodiy, ma'naviy mahsuliyligidan yuqori darajalarga ko'tarila bormasa, bioenergetik tana to'la ishga tushmaydi. Bioenergetik tananing to'la ishga tushmasligi tananing ma'naviy-ruhiy rivojiga, u o'z navbatida jismoniy rivojlanishiga to'siq bo'la boshlaydi. Ma'naviy-mahsuliy rivojlanmaslik ma'naviy-ruhiy o'sishga to'siq bo'ladi, kishi o'z mohiyatini bajarmagach, ong va ong osti nomutanosibligi boshlanib insonning o'z-o'zidan norozilik kayfiyati kelib chiqadi. Keyin u kayfiyatini ko'tarish maqsadida sun'iy yo'llar qidira boshlaydi. Bu ichkilikbozlik, chekish, narkomaniya, nashavandlik, maishiy buzuvchiliklarga olib keladi. Bu ijtimoiy illatlarning oldini olishning tabiiy omili insonning asl mohiyatini ochib uni juda katta moddiy, ma'naviy imkoniyatlar va qudratini ishga solishdir. Chunki o'zininguquvi, qobiliyatini

ro'yobga chiqarish asosida bunyodkorona mehnat qilib moddiy-ma'naviy mahsulotlar yaratib o'zini, oilasini pok, halol luqma bilan boqib, davlatni, xalqini moddiy-ma'naviy boyitishga xizmat qilgan kishi so'zda emas, amalda hamhaqiqiy iymonli kishi bo'ladi.

Metod (lotincha-metodos-yo'l so'zidan) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda - tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Pedagogika fanining metodologik asosi va amal qiladigan negizi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim haqida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", I.A. Karimovning asarlari, Oliy Majlis materiallaridir.

Ob'ektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o'rganish va o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi. Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi: Ammo shuni ta'kidlamok lozimki, ilmiy tadqiqot metodlari tizimi hali hozirgacha fanda to'la yaratilgan, hal etilgan emas. Mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy-tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritish mumkin.

1. Pedagogik kuzatish usuli.
2. Suhbat usuli.
3. Bolalar ijodini o'rganish usuli.
4. So'rovnoma, test usuli.
5. Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli.
6. eksperiment, tajriba, sinov usuli.
7. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilish usuli.
8. Matematika-kibernetika usuli.

Pedagogik kuzatish – odatda tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokozolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatish turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning xatti-harakatlari va hokozolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyotiasrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofotos'yomka, videozapis, televidenie va h.z.)ni qo'llash bilan tobora ko'p qo'llanilmoqda.

Suhbat metodi – so'rashning bir turi bo'lgani holda, tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat metodida – maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib, interv'yu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda interv'yu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida interv'yu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinash va h.k.

Bolalar ijodini o'rganish – o'quvchilarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

Pedagogik soʻrash metodi – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. Soʻrash savollarning mantiqiy oʻylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qatʼiy formadagi javobni (“ha”, “yoʻq”) hamtaqozo etishi mumkin.

Test, soʻrovnoma - bu soʻrovnoma, yaʼni anketa usuli qoʻllanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, oʻquvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida oʻtkaziladi. Test savollaridan koʻzlangan maqsad oz vaqt ichida oʻquvchilarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarining bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri – bu test yordamidagi sinovdir. Test yordamida sinov oʻquvchi yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, maʼnaviyati hamda yoshlarning qaysi yoʻnalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan baʼzi bir yutuqlari va kamchiliklarida keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi taʼkidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligiga sabab, uning qisqa va loʻndaligi, toʻgʻri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning oʻquvchilarga koʻrsatma bõlibxizmat qilishi, uning topishmoqli oʻyinga oʻxshashligi va javobni topishda xotira, intuciya va topqirliklar qoʻl keladi. Test savollarini chop etish oʻquvchilarning mustaqilishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovini oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlariga kirish imtihonlarida qoʻllash quyidagi qator natijalar berdi.

Imtihon oluvchi bilan imtihon topshiruvchi orasidagi subʼektiv sabablar va psixologik toʻsiqlar yoʻqoladi. Barcha abituriyentlarga beriladigan imtihon sharoitlari vaqti variantlarning murakkablik darajasi, baholash kriteriyalari deyarli bir xil boʻlishiga erishiladi.

Test natijalarini EHM yordamida avtomatlashtirilgan holda ishlab chiqish amalga oshirildi, oʻquvchilarning qaysi fandan va uning qaysi boʻlimidan bilimlarining past yoki yuqoriligini baholash va uning respublikamiz regionlari, xatto ayrim maktab-liceylar boʻyicha tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Iqtidorli yoshlarni tanlash, olimpiadalar oʻtkazish jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilashga olib keldi.

Oliy oʻquv yurtiga kiruvchilar uchun test sinovi atigi 3 ta fandan boʻlib, albatta bu etarli emas. Ular bir necha fandan va bir necha bosqichdan iborat boʻlishi kerak. Oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlariga kiruvchi yoshlarning nutqi, til boʻyicha savodliligini nazorat qiluvchi yoshlarning faqat testlarni mexanik ravishda yodlash va tilga, boshqa fanlarga eʼtiborsizligiga barhamberilishi mumkin.

Test sinovlar metodi - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yigʻib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, toʻldirilgan anketalar soniga bogʻliq boʻladi. Odatda test savollarining maʼlumotlarini kompʼyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli - bunda oʻquvchilarning umumiy miqdori, uning oʻsishi yoki kamayish sabablari tavsifi, oʻquvchilarning fanlar boʻyicha oʻzlashtirish darajasiga, sinfdan qolishning oldini olish, ragʻbatlantirish va jazolash choralarini turlariga, maktabning moddiy bazasiga eʼtibor beriladi.

eksperiment-tajriba-sinov usuli - ushbu tajriba asosan taʼlim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarining tadqiqot jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida oʻtkaziladi.

Statistika maʼlumotlarini tahlil qilish usuli - xalq taʼlimi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablagʻlarning doimiy oʻsib borishi, darslik va oʻquv qoʻllanmalari, koʻrgazmali qurollar, oʻqituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xoʻjalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablagʻlar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Sociologik tadqiqot metodi – Anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga boʻlgan munosabatlarini aniqlash, talabalar orasidagi doʻstlik munosabatlarini OʻzMU dagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan tasavvufga boʻlgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning maʼnaviy

sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, professor-o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, komp'yuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish universitetda qo'llanilayotgan testlar talabalar nazarida, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning harajatini qanchalik qoplaydi, haq to'lanadigan ishlarda talabalar qatnashdimi, otalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bõlibetishida hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qutulish kerak bo'lgan salbiy sifatlar, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va ta'lim haqidagi Qonunning mohiyati va mazmuni haqidagi talabalarning fikrlari, "O'zbekistonXXI asr bo'sag'asida" kitobiga munosabati, o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi komp'yuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Nazorat uchun savollar

1. Metod so'ziga ta'rif bering.
2. Ilmiy tadqiqot metodlari tasnifnomasini aytib bering.
3. Ilmiy tadqiqot metodlarining qaysilaridan kelajakdagi faoliyatingizda foydalanish mumkin va qanday?
4. Tadqiqotusullarini tushuntirib bering.
5. Milliy g'oyaning va milliy mafkuraning pedagogik mohiyatini tushuntirib bering
6. Milliy ma'naviyatimizning pedagogik asoslari nimalardan iborat?
7. Insonning nodir betakrorligi qachon namoyon brladi

3-MAVZU.

Tarbiya jarayoni va tarbiya usullari. Ma'naviy sifatlar.

Reja:

1. Tarbiyaning mohiyati va vazifalari.
2. Tarbiya usullari va tamoyillari.
3. Ma'naviy manbalardagi insonparvarlik g'oyalari.
4. Komil insonning ma'naviy sifatлари. Komillik mezonlari.

Ma'ruza bo'yicha tayanch so'zlar:

Jazo, uyat, tarbiya, tarbiyalanganlik, adolat, odob, xulq, axloq, madaniyat, ma'naviyat, sifat, fazilat, inson komilligining mezoni, manmanlik, kamtarlik, anglash (fikr), mushohada, tafakkur, amaliyotda qo'llash.

Tarbiya – ma'naviy meroslar va jamiyat talablarini etiborga olgan holda, murabbiy(o'qituvchi) va tarbiyalanuvchi(o'quvchi)ning aniq maqsadga qaratilgan o'zaro faoliyati natijasidir.

Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya jarayoni tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi. Bunda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- a) shaxsning qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish nazarda tutilishi;
- b) bu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish vositalari va usullari;
- v) maqsadni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy manbalarning mavjudligi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagilarga bulinadi:

1. So'z orqali ifodalash usuli.
2. Ko'rgazmalilik usuli.
3. Amaliy, namuna usuli.
4. Rag'batlantirish va jazo usuli.

Yuqoridagi metodlar (usullar) o'z navbatida quyidagi guruhchalarga bo'linadi:

Birinchi guruh - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa usullarga;

Ikkinchi guruh - kinofil'mlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usullariga;

Uchinchi guruh - tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish. o'rnak ko'rsatish, boshqalarni amaliy mehnatini misol qilib ko'rsatish;

To'rtinchi guruh - o'quvchi-talabalarning yaxshi bajargan ishlarini, o'rtoqlari oldida yoki ota-onalar majlisida ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy yordam, stipendiyalarini oshirish, maqtov yorliqlari topshirish. Suratlarini hurmat taxtasiga yopishtirish va boshqa og'zaki, "rahmat", "barakalla" kabi rag'batlantirish usullarini kiritish mumkin.

Tarbiyachining rag'batlantirish usuli ikkiga bo'linadi:

1. O'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashganligini rag'batlantirish.
 2. Qiziqishini va uni uddalay olganligini rag'batlantirish.
- Jazo – bu bolaning noto'g'ri qilgan ishiga o'zini iqror qildirish.

Agar bola siz ogohlantirmasingizdan yoki tushuntirmasingizdan oldin o'z xatosini tushungan bōlisa-yu, sizga qilgan xatosini aytolmay izza chekib turgan bōlisa, uni jazolashga zarurat yo'q. endi bu xatoni qaytarmayman, degan ma'noda sizga qarayapti. Siz unga yana bir marta imkoniyat bering. Ammo keyingi gal hamxato qilsa va uni tan olmasa, unday hollarda quyidagi jazo turlari qo'llaniladi.

1. Tushuntirish.
2. Tanbeh berish.
3. Ogohlantirish.
4. Qattiq ogohlantirish.
5. Uyaltirish.

Yuqoridagi jazo turlarini o'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz hech kimning guvohisiz qo'llaydi. Ammo gruppadosh o'rtoqlari yoki sinfdoshlari oldida izza qilay deb bolani uyaltirsa, yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Uyat – bu insonning eng nozik sezgisi bo'lib, o'quvchini o'rtoqlari yoki kollektiv orasida izza qilish (uyaltirish) eng yuqori jazo hisoblanadi.

O'quvchini jamoa orasida izza qilishni eng oxirgi chorasiz qolganda qo'llash mumkin. eng ma'quli o'quvchi bilan yuzma-yuz mehrlı ohangda, unga ishonch bildirib, qaltis yo'ldan qaytarish mumkin.

Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida ortirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatimiz mezoniga kirmagan, o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilish.

Bolaning xarakterini, oiladagi tarbiyasini, uning or-nomusini, sharm-hayosi kabi nozik tuyg'ularining tarbiyalanganlik darajasini bilmay turib, birdaniga jamoa orasida uyaltirish, yaxshi o'ylab ko'rmaslik, yoki jahl ustida tinimsiz (tan jarohati etkazish) kaltaklash mumkin emas. Sizing tanlagan jazo usulingiz o'quvchini yoki farzandingizni qilgan xatosini tushunishga, boshqa qilmasligiga tarbiyaviy saboq bo'lishi kerak. Jazo adolat mezoniga tayanib qo'llanilmog'i lozim. Zero, bu qo'llagan jazo usulingiz o'quvchining sha'niga, g'ururiga va uni ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi nazarda tutilishi kerak. Agar bu jazo usullari o'zining samarasini bermasa, u holatda ehtiyotkorlik bilan maktab ma'muriyati va jamoa hamkorligida boshqa choralarni ishlab chiqish kerak.

Bugungi kunda Pedagogika fani ham, amaliyoti ham takomillashib bormoqda. Shuningdek, tarbiya jarayoni hamzamon talabiga monand takomillashib boradi.

Adolat o'zi nima? U qanday tushuncha? Bu tushunchani pedagogika taraqqiyotiqanday talqin etish mumkin?

Adolat – hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalariga rioya etgan holda hal etishdir.

Adolat tushunchasi bilan bog'liq jihatlar juda keng qamrovli bo'lib, adolatli inson, adolatli jamiyat kabi tushunchalar shunday jihatlar jumlasiga kiradi. Adolatparvarlik tushunchasi esa adolat tamoyiliga amal qilgan holda olib borish, yo'l tutish, faoliyat yuritish demakdir. Bu tushunchaning mohiyatini oilada farzand tarbiyasi jarayonida uchraydigan quyidagi hayotiy masalalarning echimi asnosida qaraylik.

Masalan. Aka dars qilayotganida ukasi oyoq tagida "g'ing-g'ing"lab mashinasini o'ynayverdi. Akasi bir-ikki bor ukasiga boshqa uyga chiqib o'ynashini iltimos qildi. Ammo ukasi quloq solmadi. Jahli chiqqan aka ukasining mashinasini olib, eshikdan uloqtirdi. Bundan xafa bo'lgan uka: "Akam urdi",- deb onasiga yig'lab bordi. Ona kichik o'g'lining gapiga kirib: "Kap-katta yigit, kichik bolani urdingmi?" – deb koyidi va bir shapaloq urdi. Bu holatni ko'rgan kichik o'g'li xursand. Ona hamkichik o'g'lining yuzidagi tabassumdan boshi osmonga etgan holda uydan chiqib ketdi.

Masala ona tomonidan adolatli hal qilindimi?

Adolat ta'rifiga murojaat qilib, bu hayotiy masalani tahlil qiladigan bōlisak, akaning hamaxloqiy, hamhuquqiy normalari paymol qilinganligini ko'ramiz. Masala ona tomonidan adolatli hal qilinmadi. Aka-uka o'rtasida mehirsizlik munosabatlarining paydo bo'lishiga birinchi zamin

yaratildi. Ukaning esa bundan buyon yolg'on gapirishiga yo'l ochib berildi. Bunday holatlar bir necha bor takrorlansa, aka: "Ota-onam mendan ko'ra ko'proq ukamni yaxshi ko'rar ekan", degan xulosaga keladi. Adolatsizlik zamirida aka ichimdagini top deydigan, oiladagilarga va aka-ukalarga bemehr bōlibtarbiyalana boshlaydi. Agar ona: "Qani yur-chi, o'g'lim", - deb aka va ukani yuzlashtirib, haqiqatni, ya'ni akaning urmaganligini aniqlaganida, ukaning tuhmat qilayotganini bilib, o'z vaqtida chora ko'rganida edi, aka-ukalar orasida mehr, ishonch, bir-birini hurmat qilish, aldamaslik, qilgan aybini tan olib ish ko'rish kabi ko'nikmalarni yanada shakllantirgan bo'lar edi.

Ota-ona va farzandlar orasidagi alodatning axloqiy va huquqiy buzulishlari salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Oilalarimizda bolalarning yoshligidan boshlab yaxshi sifatlarni shakllantirib borishga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim, hayotiy masalalarni hal qilishda ota-onaning bilimi, ma'naviyati, o'zini tutishi, yurish-turishi katta ahamiyatga egadir.

Farzandlar, talabalar, qolaversa, odamlar orasida adolatparvarlik xislatlarini kamol toptirishda o'rnak ko'rsatish, tushuntirish va uqtirish, rag'batlantirish, ogohlantirish, tanbeh berish, uyaltirish (izza qilish), suhbat, munozara va bahs kabi usullardan foydalanish mumkin.

Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatlari majmuidan iborat.

Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlarning majmui.

Biz pedagoglar va ota-onalarning burchi farzandlarimizni va talabalarimizni Vatanga muhabbatli, imonli, e'tiqodli, adolatparvar qilib tarbiyalash, shakllantirishdan iboratdir. Bunday fazilatlarini o'zida kasb etgan yoshlarimiz, qanday vaziyatda bo'lmasin, hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob – har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Xulq – odobning ichki tuyiq ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – "jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi".

Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Moziyga bir nazar tashlaylik. erkaklarimizdan ularga xos mardlik, jasurlik, g'urur kabi xislatlar meros bōlibkelayotgan bōlisa, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm-hayo, shirinabonlik kabi xislatlar asrlardan-asrlarga meros bōlibo'tib kelmoqda. Demakki, bu xususiyatlar elimiz, yurtimiz, millatimizning qondosh va jondosh ajralmas bir ma'naviy qiyofasidir. endilikda zamondosh yigit-qizlarimiz yurish-turishlari, xatti-harakatlari, kiyinishlari bilan o'zlarini qanchalik o'ta taraqqiylashgan shahar fuqarolari kabi ko'rsatmasinlar, baribir ular qalban shu ma'naviy merosning egasidirlar.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlaridagi Otabek va Anvarjonlar bugungi qizlarimiz baxtining ideali bōlisa, Kumush va Ra'nolardagi sharq ayollariga xos iffat va latofat, bokiralik, hayolilik, vafodorlik, sevgan kishisini e'zozlash kabi xislatlar egasi bo'lish yigitlarimizning orzusi va niyatidir. Bu asarda sharqona muhabbatning nafis, e'zozli, haqiqiy me'yoriga etkazilgan ideal namunasi bayon etiladi. Yozuvchi zamondosh yigit-qizlarimizni ana shunday beg'ubor, samimiy, e'zozli sevishga undaydi.

Inson qadri umrida qancha yil yashagani bilan emas, balki bu fursatdan qanday foydalanganligi, el va jamiyat manfaati yo'lida nima ishlar qilganligi bilan o'lchanadi. Bir asr umr ko'rib, nom-nishonsiz o'tganlar hambor, oz umr ko'rib, abadiy nom qoldirganlar hambor. Insonlar el nazarida uy-joy, molu mulklari bilan yashamaydilar, balki xalq uchun qilgan sharaflari bilan barhayot yashaydi. Tarixga nazar solsak, necha-necha asrlar davomida shohlar, boylar, darveshlar, xullas qancha-qancha insonlar bu hayotdan o'tishgan. Ammo xalq uchun, uning ma'naviy kamoloti yo'lida riyozat chekkan Forobiy, al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Lutfiy, Alisher Navoiy, Binoiy, Koshifiy kabi allomalimiz insoniyat kamolotining yo'lchi yulduzlari bo'lganliklari uchun mana necha asrlar o'tibdik, biz bilan yonmayon yashayotgandek ishimizga, o'ylarimizga, orzularimizga hamkor, hamnafas, ruhi-poklari xotiramizda abadiydir.

Inson komilligining mezoni uning o'qib-uqqanligi, aqliy va axloqiy bilimlari saviyasi va ularni hayotda qo'llay bilish ko'nikmasini hosil qilganligi bilan belgilanadi.

Respublika Oliy Majlisining 12-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan "Kuch-bilim va tafakkurda" degan teran bir fikr ilgari surildi. Tafakkur- insonning butun hayotiy va ijodiy faoliyatini idora qiluvchi ongiy kamolot o'lchovidir. Unga faqat bilim olish, hayotni kuzatish, uni o'qish va uqish, yaxshi va yomonni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish orqali erishiladi. Tafakkur aql tarozisi bo'lgan til orqali namoyon bo'ladi. Sizning so'zlagan so'zingiz, aytgan fikringiz tafakkuringizning, aql-idrokingizning, ongingizning oyinasidir.

Manmanlik – bu o'z kamchiligini va o'zgalarni tan olmaslik, o'zgalar fikri bilan hisoblashmaslik, takabburlik, xudbinlikdir. Manmanlik illati u makon qurgan kishilarni sog'lom fikr yuritishdan, o'zini takomillashtirib borishdan mahrum etadi. Natijada bunday odamlarda jaholat illati, ya'ni bilimsizlik paydo bo'ladi.

Kamtarlik va manmanlik bir-biriga qarama-qarshi ikki yo'ldir: ularning biri sizni kishilarga yaqinlashtiradi, ikkinchisi esa yiroqlashtiradi.

Inson eng avvalo har tomonlama bilimdon bo'lmog'i lozim. Bilimdon bo'lmoqlik, bu o'z kasbini puxta egallash, el-yurt, Vatan manfaatlari yo'lida sidqidildan mehnat qilish, unga sadoqatli bo'lish, uni e'zozlash, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy bilimlarni doimiy ravishda etarli darajada egallab borish, ma'rifatli bo'lish, ma'naviy kamolot sari intilish, xalqning, insonlarning g'am-tashvishlari, quvonchlarida hamdard, hamkor, elkadosh bo'lish, umumiy qilib aytganda jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etish, uning istiqboli uchun qayg'urish, doimo ezgu ishlar, orzu-umidlar, niyatlar bilan yo'ldosh bõliburish demakdir.

Buning uchun inson har doim o'z mustaqilfikrlash qobiliyatini shakllantirib, sayqallab bormog'i kerak.

Mustaqilfikrlash komillikning asosiy belgisidir. Komillik uch bosqichdan iborat:

1. jismoniy salomatlik
2. axloqiy poklik
3. aqliy etuklik.

Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqilfikrlash etakchi ustuvor o'rin egallaydi. Talaba yoshlar tarbiyalanishni qalban xohlab intilsalar, jismoniy va axloqiy komillik darajasiga osonlik bilan erishsa bo'ladi.

Anglash – biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib etish.

Mushohada – shu g'oya (fikrni)ni mantiqan talqin qilish.

Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Amaliyotda qo'llash – hayotda bir necha bor qo'llanilgan õziningijobiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar echimi bilan solishtirib, xulosa qilish, so'ng tafakkur saviyasiga tayanib, yagona echimni tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Mustaqilfikr yuritish jarayoni, muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Lekin mazkur vaziyat tug'ilishi, echimi bu bilan tugallanmaydi. Insonda bilishga nisbatan moyillik, ixtiyorsiz xatti-harakat muammoli vaziyatgacha yorqin bo'lmagan, noaniqliklarni izlab topish kabi

holatlar yuzaga keladi, so'ng tub ma'nodagi echimga muhtoj muammoli vaziyat yaraladi va nihoyat uning echimi topilsa-da, lekin bilishning muammodan keyingi bosqichi fikrning o'z yo'nalishida ixtiyorsiz davom etaveradi.

O'quv faoliyatida fikr yuritishning, tafakkur qilishning o'zaro mustahkam bog'langan berk zanjiri vujudga keladi.

Mustaqilfikr yuritish jarayoni quyidagi bosqichlardan tarkib topgan:

1. Mustaqilfikr yuritish faoliyatida eng avvalo hal qilinishi zarur bo'lgan muammo inson tomonidan yaxshilab anglab (tushunib) olinishi kerak. Agarda inson oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga keltirilmagan bōlisa, u holdau biron-bir narsa tōg'risida fikr hamyuritmaydi. Mushohada hamqilmaydi. Inson tanballikka moyildir. Mabodo shaxs hal qilinishi shart bo'lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to'laroq ma'lumotga ega bōlisa, uni oqilona echish yo'l va vositalarini shunchalik engillik bilan topadi.

2. Muammo yoki masalani hal qilish uchun eng zarur bo'lgan barcha bilimlarni, muhim munosabatlar, urf-odatlar, bog'lanishlarni yaxshi bilishi va uni tadbiiq qila olishi zarur.

3. Masala yoki muammoga taalluqli faraz ilgari suriladi, bosqichlar tahlil qilinadi, echish tōg'risida mulohazalar bildiriladi. Turli variantlar haqidafikr yuritiladi, ular o'zaro qiyoslanadi va eng samarali variantlar ajratiladi.

4. Muammo oldiga qo'yilgan gipotezani muayyan mezonlar yordami bilan tekshirish zaruriyati tug'iladi. Uning haqqoniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqliy xatti-harakatlar tizimini tadbiiq qilib ko'riladi va ayrim o'zgartirishlar kiritish mo'ljali oydinlashtiriladi. Gipoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz va sintez qilinadi, muhim alomatlar ajratiladi, uning to'g'riligi, haqqoniyliigi bo'yicha tezkor hukm va xulosalar chiqariladi.

5. Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza to'g'riligi yoki noto'g'ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish ob'ektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o'ylar, taxminlar qabul qilinadi yoki o'ylab topiladi. Yangi amaliy gipoteza fikran bir necha marta tekshiriladi va undan so'ng amaliyotga joriy qilish uchun sinashga tavsiya qilinadi. Ta'kidlab o'tilgan mulohazalarning aksariyati konstruktiv texnik masalalarni hal qilishda, kashfiyotlarni yaratishda, ixtirochilik takliflarida, racionalizatorlikda, texnologik qurilmalarni joriy qilishda turli-tuman variantlar, texnologik kartalar va boshqa modellar fikran tahlil qilinadi. So'ngra ulardan eng ma'quli, omilkori, eng maqsadga muvofiqi tanlanadi va uning ustida bosh qotiriladi.

6. Muammo va masalani hal qilish, echish, olingan natijalarni to'g'riligiga ishonch, qanoat hosil qilish uchun echuvchi shaxs uni tekshirish bilan mustaqilfikr yuritish xatti-harakatlarini yakunlaydi. Ana shu fikriy operaciyalar, mulohazalash shakllaridan so'ng masala (topshiriq) batamom hal qilinadi va bu muammo tōg'risida o'ylash nisbiy jihatdan vaqtincha to'xtatiladi. erishilgan muvaffaqiyat hayotga joriy qilinadi. Boshqacha aytganda bu muammo va uning echimini topish uchun qilingan harakatlar va echimlar kelgusi muammoli vaziyatni hal qilish uchun kerak bo'ladi. Bu tajribalar ongning xotirasida saqlab qo'yiladi va navbatdagi hayotiy muammolarni echishda chuqur o'ylash, mushohada qilish, tafakkur saviyasiga mos, hayotiy tajribaga tayanib echim izlash va uni orttirgan hayotiy tajribalar bilan qiyoslash, undan keyingina yagona oxirgi xulosaga kelish va uni hayotda qo'llash kabi berk aylanma tizim (sistema, mexanizm) hosil bo'ladi. Bu tizim cheksiz davom etaveradi.

Harbir shaxs o'z aql-idroki, tafakkurning teranligi, intellektual shakllanganligiga xos va mos holdamuammolarni echadi va hayotga joriy etadi. Inson hayotga joriy etgan muammolar echimining saviyasiga qarab, kishilar orasida o'z o'rni va mavqeini egallab boradi. Shu yo'sinda shaxsning mustaqilfikrlash qobiliyati sayqallanib boraveradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sifat va fazilat nima?
2. Qanday sifatlar ma'naviy sifatlar deyiladi?
3. Insonning tarbiyalanganligini qanday baholash mumkin vaning mezoni nimadan iborat?

4. Odoq, xulq va axloqqa ta'rif bering.
5. Tarbiyaning mohiyati tushuntirib bering.
6. Tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi roli.
7. Tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat?
8. Tarbiya usullari tasnifnomasini aytib bering.
9. Tarbiyada rag'barlantirish va jazo usullarining roli.

4-MAVZU

Vijdon va uni tarbiyalash. Huquqiy tarbiya. O'z kasbiga, mulkiga, tabiatga vijdoniy munosabat.

Fikr tarbiyasi. erkin va kasbiy fikrlash

Reja:

1. Vijdon eng oliy ma'naviy-insoniy sifat.
2. . Huquqiy tarbiya.
3. Insonning o'z-o'ziga, xalqiga, vataniga, tabiatiga vijdoniy munosabati
4. . Kasbiy fikrlashning afzalliklari.

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar:

Vijdon, ruh, qalb, iymon, ong, huquqiy tarbiya, kasb, mulk, tabiat, munosabat, fikr, tushuncha, mushohada, anglamoq, shuur, tafakkur, tashabbus, xronologik, muammoli, evristik, gipotetik.

Inson faqat moddiy-biologik vujudan emas, uning yana shu moddiy-biologik tanasi boshqarib, rivojlantirib turuvchi bioenergetik tanasi bor ekanligi dunyoviy fanlar hamto'la isbotlab bo'lishdi. Xuddi shu bioenergetik tana insonning ruhiy-hissiy sifatlaridan tarkib topgan bo'lib, ularning tarkibiy qismini vijdon tashkil etadi. Ruhiy-hissiy sifatlar majmuasi insonning ma'naviyatini tashkil qilganligi uchun demak, vijdon – eng asosiy, eng oliy ma'naviy-insoniy sifat ekan. Shuning uchun inson tarbiyasida vijdonni tarbiyalash ma'naviy-insoniy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Vijdon tushunchasi, insonning vijdoniy sifati uning ongi, qalbi, aqli va irodasiga bog'liqdir. Chunki insonning ichki ruhiy kechinmalarida yaxshilik va yomonlik doimo ichki kurashda bo'ladi. Agar inson biror ma'naviy vaziyatda o'z qalbiga quloq solib, irodasini ishga solib, g'arazgo'ylik, mansabparastlik, molparastlik va hokazo kabi g'ayri insoniy illatlardan ustun chiqib oqilona ish ko'rsa uning vijdoniy sifati yuqoriligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatlar inson hayotida juda ko'p bo'ladi.

Bu haqda Prezidentimiz “Fidokor” gazetasining muxbiri bilan bo'lgan “Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman” nomli muloqotlarida: “Aslida mening nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch - bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha kurashadi”. Inson qalbida g'ayri insoniy illatlarning ustun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir. Xuddi ana shu kasallikni davolashni ham Prezidentimiz ko'rsatib o'tdilar. I.A.Karimov shu mavzuda o'z so'zlarini davom ettirib: “Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz hamfarzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bõlisa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur”.

Arastu hakim vijdonni talqin qilib shunday degan: ”Ruhimizning ma'naviy quvvati bilan vijdonimiz, fikrimizga quvvat beruvchi bir vositayu idrokiyatdir”.

Insonni faqat tibbiy-biologik emas, balki uni ruhiy-hissiy siymo sifatida yaxshi o'rgangan vatandoshimiz Ibn Sino: “Vijdon ruh va fikrimizni tuyg'un qilmoqqa birinchi vositadir”, - degan edi.

“Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladur gon hissiyot, ya'ni sezuv-tuymoqdan iborat ma'naviy quvvatni aytilur. Biz har vaqt af'ol va harakatimizni yaxshi va yomonligini, foyda va zararligini onjaq vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiligini o'lchab bilmak ila barobar boshqalarning hamaf'ol va harakatini sezur. Agar ishlagan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bõlisa, muhabbat qilur. Qabohat, yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur. Biz janobi haqning amr va nahyini fikr va ruhiyatimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz ila ayira bilurmiz.

Ammo vijdotsiz kishilarning ishlarida, niyat va amallarida, do'st va oshnoliqlarida yashirin bir g'arazlari o'ldig'indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobig'a giriftor bulurlar".

Darvoqe hayotning asl mohiyati, ma'nosini topishda vijdonning roli yuksakdir, buning uchun eng avvalo, inson o'z-o'ziga to'g'ri talab qo'ya bilishi lozim. Turmushning har bir jabhasida vijdon adolat mezoni bo'lmog'i lozim. Prezidentimiz I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" kitobida bu jihatiga alohida urg'u berib o'tadi. "Har bir kishi o'z mamlakatining fuqarosi ekanligini his qilishi, uning o'ziga berib qo'yilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatda bo'lishi va qadrlashi, mashaqqatli mehnati bilan qo'lga kiritilgan demokratik qadriyatlarni asrab-avaylashi va himoya qilishi g'oyat muhim".

Vijdon tarbiyasi juda yoshlikdan boshlanmog'i lozim. Uning oddiy insoniy munosabatlarda namoyon bo'lishi, insonparvarlikda, iqtisodda vijdoniy munosabatlarning ustivorligiga erishishi lozim.

Abdulla Avloniy vijdonni insonning oyinasi deb biladi."Al hosil vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsatadurgon musaffo bir oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar qilgan kishi o'z aybi va kamchiligini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning aybi va qusurini axtarmog'ga vaqti bo'lmas. Arastu hakim: «Ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga quvvat berguvchi bir vositayi idrokiya deyilur. Ya'ni, hissiyotimizning ruhimizga ta'sir ettiruvchi bir robitai ilktiriqiyyasidur", demish.

Ibn Sino hakim quyidagi misralarida vijdonni komillik mezoni deb atagan.

Sof vijdon kabi hech komili mezon o'lmas.

Kishi o'z aybini bilmak kabi urfon o'lmas.

Albatta yoshlar tarbiyasida vijdon tarbiyasining roli yuksak bo'lmog'i lozim. Bunda kishining o'z vijdoni oldida hisob bermog'ini, zavqlanish, huzurlanish, halovat, obro', qadr-qimmatining vijdon tarozusi ila qaralmog'ini uqdirmoq kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi vijdoniy munosabatlar yoshlarni tarbiyalashda muhim jihat sanaladi. Baholash jarayonidagi nohaqliklar har qanday yoshni o'ylantiradi, vijdon qiynog'iga olib keladi.

Bugungi reyting tizimidagi baholash tizimi bunday nohush ko'rinishlarning oldini olmoqda.

Vijdon - iymon, qalb pokligi, ongli ilmu-amaliy faollikdan iboratdir. Shuning uchun diniy ilmlarni asoslashga iymonlilikning birinchi qismi ilmu-amaliy faollik bōlisa, ikkinchi qismi shariat amallarini bajarishdir. Xuddi ana shu narsa insonning asl mohiyatidan iborat bo'lib, insonning haqiqiy hayot ma'nosini tashkil qilmog'i kerak. Hayot ma'nosi, uning maqsadi bilan aralashtirilmasligi kerak. Maqsad foyda olish, pul topish, agarda ma'naviy javobgarsiz hayot ma'nosiga aylanib ketsa, kishida ma'naviy inqiroz boshlanadi.

Harbir kishi o'z-o'ziga, kasbiga, davlatiga, xalqiga, insoniyatga, olamga vijdoniy munosabatda bo'lishi kerak. Insoniyat tarixida juda yirik ma'naviy-madaniy manbaga aylangan Avesto, Manas, Alpomish, Maxabhorat, Maxbub ul-qulub kabi asarlar juda uzoq yillar davomida vijdoniylik, insonparvarlik, insoniylikda olamga saboq berib kelmoqda. Bu o'rinda ilohiy asar Qur'oni karim ma'naviy hayotiy qomus hisoblanadi.

Insoniyatga, olamga o'zlarining ta'limotlari, ibratli hayotlari bilan insoniyat farzandlari Abduholiq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshbandiy, Buxoriy, Farg'oni, Najmiddin Kubro, Ibn Sino, Ulug'bek, Eynshteyn, A.Saxarovlar ibrat bo'lib kelmoqdalar.

Ma'naviy mas'ullik insonlarni moddiy-ma'naviy bunyodkorlik, mahsuldorlik, yaratuvchilikka da'vat qiladi. Xuddi shu ma'naviy-insoniy sifat inson mohiyatining bosh omilidir.

Oллоh taolo insonni bilim, axloq va faoliyat bobida mas'ul qilib yaratgan. Bu haqda Qur'oni karim Al-Isro surasining 36-oyatida shunday deyilgan: "ey inson, o'zing aniq bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko'z, dil - bularning barchasi tōg'risida (har bir inson) mas'ul bo'lur".

Mas'ullik esa mustaqillik, erkinlik, faollik va ma'naviy javobgarlikdir. Bu ilohiy haqiqat dunyoviy - zamonaviy insonshunoslik fanlari pedagogika, psixologiya, genetika, fiziologiya, biologiya, mikrobiologiya va boshqa fanlar nuqtai nazaridan hamisbotlandi.

Insonning bu mas'ulligi va ma'naviy javobgarligi, moddiy olamni moddiy-ma'naviy taomilligi, go'zalligi hamda moddiy-ma'naviy ta'minotida amalga oshiriladi.

Chunki ilohiy manbalarda tasdiqlanishicha, inson Olloh Taoloning erdagi halifasi, o'rinbosaridir. Bu insonlarga berilgan buyuk in'om, ishonch va vakolatdir. Bu insonning erkin, ozod, nodir, betakror ulug' siymo qilib yaratilganligining ilohiy tasdig'idir. Bu ulug' vazifani bajarish uchun har bir insonga aql, ong, uquv, qobiliyat va boshqa ma'naviy-insoniy sifatlar ato qilingan.

Demak, insonlarning asl bosh ma'naviy-insoniy mohiyati ularni olamni har tomonlama takomillashtiruvchi moddiy-ma'naviy bunyodkorliklaridadir.

Insonning erkin va ozodligi uning fikrining mustaqilligi, erkinligidan boshlanadi. Aslida fikr erkinligi insonning asosiy ma'naviy-insoniy huquqidir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi kunlaridanoq "Vijdon erkinligi" haqidagi qonunni qabul qilinishi bo'ldi. Chunki bu qonun insonning asosiy ma'naviy-insoniy huquqi fikr erkinligini qonuniy kafolatlagan edi. Shuning uchun ma'naviy-insoniy qadriyatlarning asosi bo'lgan insonning o'zligini anglash fikr erkinligini anglashdan boshlanadi.

Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun fikr rivojining tarixi insonlar munosabatini, hayotini belgilovchi asosiy ijtimoiy tamoyillar tarixiga bog'liq.

Inson yaratilishining ilk davrlarida fikr tabiatdagi jarayonlarni anglash, ulardan yashash uchun foydalanish va o'zini muhofaza qilish shaklida bo'lgan. Shu asosda inson fikri rivojlanib, inson mehnatining boshqa moddiy, ma'naviy ko'rinishlari vujudga kela boshlagan. Sekin-asta insonlar orasidagi mahsulot ayirboshlash munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni keltirib chiqara boshlagan.

Insoniyat taraqqiyotida fanlar va o'quv fanlarning paydo bo'lishi ilm-fan yo'lidagi katta yutuq bo'lishi bilan birga fikrlash uslublarida hayotiy, tabiiy jarayonlardan tushunchalar asosida fikrlash ustunlik qila boshladi.

endi ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili ilgari surildi. Dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlarning kommunistik mafkuraga asoslangan tuzumi esa inson fikri erkinligiga zid bo'lib, fikrni bir gegemon oqimga yo'naltirishga harakat qildi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va inson kamolotiga zid ekanligini hayotning o'zi, 74 yillik sobiq Sho'rolar tuzumi isbotladi.

O'zbekistonda Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidagi qurilayotgan huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati har bir kishilikning huquqiy qadriyatlarini ro'yobga chiqarish orqali farovon hayotga erishishni bosh maqsad qilib qo'ygan.

Fikrning o'zi nima?

Ko'p hollarda fikr hayotiy, tabiiy jarayonlarni inson miyasida aks etishi deb qaraladi. Bunda fikrni rivojlantirish sifati hisobga olinmaydi.

Fikrga qisqa qilib, inson miyasida ma'nolarning o'zaro bog'lantirilishi va rivojlantirilishi deb ta'rif bersak ancha zamonaviylashadi.

Bunda ma'nolar faqat tushunchaning ma'nosi emas, balki ancha keng hayot ma'nosi sifatida qaraladi.

Tushuncha jarayon bilan uyg'unlashsa to'la ma'no kasb etadi.

Fikr bosqichlari: anglash, mushohada, shuur, tafakkurdan iborat.

Shuur uch narsadan iborat:

- fikr ravshanlashuvi,
- mushohada,
- anglamoq.

Mushohada hayotiy, amaliy, tabiiy jarayonlar asosida tushuncha, voqea, hodisalarning tahlili.

Tafakkur arabcha "mufakkir", "mufakkirotun" so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli, chuqur fikrlash qobiliyati degan ma'noni anglatadi.

Fikr haqidagi fikrning quvvati - uning ilmiyligi, chuqurligi, fikrning ziynati - ezgu niyat, maqsadga bag'ishlaganligi, kengligi - keng qamrovliligi, sofliigi - poklik, aniq sohaga yo'nalganligi sifatlar mavjud.

Fikrlashning xronologik, muammoli, gipotetik, evristik, induktiv, diduktiv, amaliy-konstruktiv va hokazo turlari mavjud. Umuman fikrlash turlarini tizimga solinsa associativ sabab va

oqibat, mantiqiy fikrlashlarga bo'linadi. Bu tushunchalar psixologiyada qaralganligi uchun biz ularga kengroq to'xtalmadik.

Jaloliddin Rumiylarning ta'kidlashicha, fikr juz'iydir, ya'ni moddiy olam asosida olib boriladi.

Tafakkur esa juz'ning aqli kull (botiniy aql) bilan uyg'unligini anglamoqdir.

Insonning barcha mavjudotlardan yuksak jihati- bu uning fikrlash qobiliyatidir. Zotan, insonlar bir-birlari bilan o'ziga xos o'y-xayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun haminson fikrini tarbiya qilish muhim sanaladi. Fikr tarbiyasi haqidabuyuk pedagog A.Avloniy "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir" deydi. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur, dars ila ikkisi bir-biridan ayirmaydurgon, birining vujudi biriga joylangan.

Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib jahonga o'z nomini tanitdi. Iqtisodiy-siyosiy jihatdan yuksaldi. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish oshdi, hamkorlikdagi korxonalar kuchaydi. O'zbekistondunoyning katta bozoriga shaxdam qadam tashladi. Shu bilan birga O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishida bugun va kelajak uchun zarur bo'lgan zamonaviy kadrlarga hamehtiyoy sezila bordi. Buni Prezidentimiz "Tafakkur" jurnalining bosh muharriri bilan bo'lgan suhbatida yana bir bor ta'kidladilar: "Bizga meros bolibqolgan ta'lim-tarbiya tizimining ma'lum bir ma'qul jihatlari bilan bir qatorda uning eng nomaqbul tomoni shundan iboratki, o'quv jarayonida o'quvchi va talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qo'ymaslik, har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, balki ularning sobiq sovet tuzumiga va soxta g'oyalariga sadoqatini hisobga olib baholash va hayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallaydi. Ko'p joylarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Ko'pchilik haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, amal-taqal qilib diplomli bolibolish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi." Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash hamkatta boyligidir, -degan edi.

Milliy g'oya va milliy mafkuramizning asosini tashkil qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini erkinlashtirish aslida fikr va faoliyat erkinligini ta'minlash asosida taraqqiyotning bunyodkorlik tamoyillarini ishga tushirishdan iborat ekanligini I.A.Karimov "Fidokor" gazetasining muxbiri bilan bo'lgan muloqotlarida (2000y, iyun) aniq ko'rsatib: "Siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, gumanizm g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish", -degan edilar.

Fikrlashda qalb, ong va sezgilarning uyg'unligi haqida Arastu ta'limoti, fikrning ezgulikka yo'naltirilishi haqida Al-Farobiy; insonparvarlikka yo'naltirilishi haqida- Alisher Navoiy; fikrning mantiqiyligi haqida- Umar Hayyom; fikrlashda signal tizimlari haqida- I.P.Pavlov; fikrning bosqichlilikida P.Gal'perin; fikrlashda umumta'lim haqida- R.Davidov ta'limotlari mavjud.

Ayniqsa ijodiy fikrlashning ilk kurtaklarini to'g'ri sug'ora bilish kelajakda kutilgan natijalar beradi. Bu jarayon kichik bog'cha yoshidan, maktab, oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Ijodiy fikr, erkin fikrning to'g'ri yo'naltirilmog'i bilan bog'liqdir. Bu kasbiy fikrlash jarayoniga yo'l ochadi.

Mustaqillik, erkinlik, bunyodkorlik esa ijodiy, amaliy, nazariy tashabbusda namoyon bo'ladi. Tashabbus iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning, insonlarning yangi talabiga mos keladigan moddiy, ma'naviy mahsulotlar yaratishga qaratilgan taklif, g'oya, fikr yoki amaliy jarayondir.

Biror sohada tashabbus ko'rsatish uchun har kishi o'zi faoliyat ko'rsatayotgan sohani mukammal bilishi, bu sohani mahsuliy jarayonida nimalar taraqqiyotga, rivojlanishga, mahsulot sifati, turi, narxiga to'siq bo'layotganini aniq bilishi bu kamchiliklarni tugatishga qaratilgan aniq texnologik g'oya, amaliy takliflarga ega bo'lishi lozim.

Tashabbuskorlik sifati insonlarning ichki faollik omillari: birinchidan, har bir kishining o'z qiziqishi, o'quv qobiliyatiga mos hayot yo'lini topish orqali o'z qadrini ro'yobga chiqarish hissi bõlisa, ikkinchidan shaxsiy manfaatdorlik, shaxsiy mulkning faqat moddiy emas, balki ma'naviy qadriyatlarni ishga tushirish orqali o'zini va davlat, jamiyat va olamni takomillashtirishga

hissaqo'shishidan iborat. haqiqatan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi mustaqildavlatimiz rivojlanishi tarixida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotga asoslangan huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurilishida bozor iqtisodiyotining yangi, hali ishga tushirilmagan mexanizmlarini ishlab chiqish va ishga tushirishda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning yangi harakatlantiruvchi kuchlarini ishga solishda XXI asrga kirib boruvchi yangi g'oyalari, texnologiyalar sessiyasi b'olibqoladi. Gap shundaki, bu sessiyada Prezidentimiz tomonidan tashabbuskorlik birinchi bor mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, fuqarolar farovon hayotini ta'minlovchi ma'naviy qadriyat sifatida ilgari surildi. Bu tasdiq Prezidentimizning sessiyada "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz" nomli jahonshumul ma'ruzalaridagi taraqqiyotyonalishlarining mazmunan uyg'unligidan kelib chiqadi. Chunki agar insonlarni qiziqishi, uquvi, qobiliyatini ishga soluvchiuning hayot ma'nosini ochib beruvchi, insoniylik mohiyatini ishga tushirilmasa moddiy va maishiy ta'minot haminson hayoti farovonligini to'la ta'minlay olmaydi. Bu ma'naviy qadriyatlar ma'naviy insoniy fazilatga aylansa shunday insonlarning hayotlari jo'shqin, baxtiyor bo'ladi. Mehnatlari unumdor bo'lib, haqiqiy farovon hayot kechiradilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Fikrning o'zi nima va uning bosqichlari?
2. Tafakkur va uning manosi.
3. Kasbiy fikrlash deganda nimani tushunasiz?
4. Vijdonga berilgan ta'riflar ayting.
5. Inson vijdonini tarbiyalash yillari.
6. Huquqiy tarbiya deganda nimani tushinasiz va uni qanday amalga oshirish mumkin?

5-MAVZU

Aql tarbiyasi. Donolik, murabbiylik. Mehnat va kasb tarbiyasi. Mehnat etikasi va estetikasi. Jismoniy tarbiya

Reja:

1. Inson aql zakovati ila buyukdir.
2. Aql -ilm va ma'rifat mezoni.
3. Komil inson uchun aql eshik ochuvchi va axloq yo'l ko'rsatguvchidir.
4. Mehnat tarbiyasining mazmuni va mohiyati.
5. Jismoniy tarbiya.

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar:

Dunyo, aql-idrok, ma'naviyat, qalb, fikr, ilm, komil inson, ilm-ma'rifat, aql, axloq, epchillik, bunyodkorlik, insonparvarlik. Tarbiya, mehnat, kasb, etika, estetika, jismoniy tarbiya.

Özbekistonmustaqilligi tufayli mamlakatimiz hayotida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz qayta tiklanib, buyuk allomalarimiz-Axmad Yassaviy, Naqshbandiy, al-Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek kabi aql-zakovatli, buyuk siymolarning hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining aql-idroki, milliy urf-odatlarini, ayniqsa ma'naviyatimizning asosi bo'lgan insoniy fazilatlar qayta tiklanmoqda. Yangi adolatli jamiyat qurish uchun ta'lim-tarbiya sohasi haqidagi bilimlar chuqurlashtirilmoqda.

Insonni ulug'lash, uning qadriga etish, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni aql-idrokli, odobli qilib tarbiyalash, ularni kamolotga etkazish taraqqiyoti Respublikamizda bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda.

Dunyo, inson, aql-zakovat, ma'naviyat- bular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Dunyo bunyod bo'libdiki, inson dunyo yuzini ko'ribdiki, o'zini inson sifatida anglabdiki, u o'zini borliqning eng mukammal mavjudoti sifatida aql-zakovati bilan tanib keladi. Inson ongi, tafakkuri va ma'naviyati tufayli shunday ustunlikka egadir. Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng hayotda yashashdan ma'no izlaydi va bu narsa uning hayoti mazmunini tashkil etadi. Insonlar bor, dunyoga keladilaru ketadilar, ulardan nom-nishon qolmaydi, hayotning ma'nosiga, qadriga etmaydilar. Insonlar bor - mana shu kelishi bilan ketishi o'rtasidagi "umr" deb atalmish vaqtga chaqmoqday chaqnab, o'zlarining yorqin izini qoldiradilar. Bu iz o'chmasdir. Mana shunday aql-zakovati bilan o'zidan keyin yaxshi ot qoldiruvchilar ma'naviy yuksak insonlardir. Ma'naviy komil insongina shunday yuksaklikka, avlod-ajdodlar qalbida zamonlar osha, asrlar osha yashashday sharafiga sazovordir.

Aql kishining o'z irodasi, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai-nazardan amal qilishdir.

Aql insonlarning piri komili, murshidi, yagonasidir. Ruh ishlovi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din va e'tiqodni mahkam qiladi, shariat hukmlariga bo'ysunadi. Insonlarning do'sti uning aqlidir. Dushmani esa uning nodonligidir. «O'lo' eng g'azab qilgan kishi ahmoqdir. Chunki u eng aziz narsadan mahrumdir». Inson aqli tufayli yaxshilik bilan yomonlikni ajratadi. Olimlarning fikricha, aql ikki turli bo'ladi.. Insonni hayvondan ajratib turadigan tug'ma aqli **Tabiiy va kasbiy** bu tabiiydir. Inson tabiatdagi aqlni o'tkirlash va o'stirish faoliyati bu kasbiydir. Bu esa aqlni ishlatish, tajriba va ilm olish bilan hosil bo'ladi. U aqlni rivojlantirish uchun hamhar bir kishi hayotdan tajriba orttirishi va ilm-ma'rifat o'rganishi zarur, har kimki, aqlga oshno bõlisa, u jamiki ayblardan poklanadi, haqiqatni, anglab, kamolotga etadi.

Abu Nasr Forobiy yozadi: "Aqlli deb shunday kishini aytamizki, unda o'tkir zehn, idrok bo'lishi bilan birga u fazilatli hambo'lsin. Bunday kishi õziningbutun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin".

Bolalarning aqlli bo'lishida oila, maktab, keng jamoatchilikning ta'siri kattadir. Aqlli bolalar qaerda bo'lmasinlar doimo ehtiyotkorlik bilan bilim va tarbiyali ekanligini namoyish etadilar. Ularni

ko'rgan, suhbatida bo'lgan kishilar aqliga tahsin qilib rahmat aytadilar. Shu o'rinda 1447 yili Taft shahrida 5-6 yoshli Alisherning mashhur olim, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan uchrashuvini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiqdir.

Bola mo'ysafidning savollariga burro javob berar edi. Uning o'zini tutishi, odobi mo'ysafidga yoqib tushdi.

-Men chaqirganimda o'rtoqlaring qochib ketdi. Sen esa huzurimga kelding, so'roqlaringga yaxshi javob berding. Shuning uchun senga rahmat, umring uzoq bo'lsin, boshing omon bo'lsin. Olim, fozil, bo'lib, yaxshi obro'ga erishgaysan, – mo'ysafid uni duo qildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, aqlli bolalar hamma joyda kamolu-ta'zim bilan salom beradilar. Odob bilan munosabatda bo'ladilar.

Haqiqatdan ham, aqlni ishlatgan kishi hayotida faqatezuguliklar qiladi va ezgulik ko'radi.

Lekin shuni aytish joizki, aql, zakovat jihatdan etuk bo'lmagan inson hech qachon o'z Vatanini, o'z xalqini, o'z dinini, eng asosiysi o'zligini anglay olmaydi, o'zligini anglamagan inson esa manqurtga aylanib qoladi. Bu esa ertangi porloq kelajagimizning halokatidir. Bizning bu boradagi eng asosiy vazifamiz yoshlarni ma'naviy barkamol, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, yurt istiqboli uchun qayg'uradigan komil insonlarni tarbiyalashimiz, ularni kamol toptirishimiz zarur.

Zero, yurtboshimiz I.A.Karimov aytganidek: «Ilm, ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qolmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakina oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz». Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganlaridek, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Shuning uchun ham komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz.

Bizga ma'lumki, inson hayoti uchun muhim bo'lgan ilm hikmatlarini o'rganishda otabobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga ko'rsatgan g'amxo'rliklari beqiyosdir.

Xalqimiz orasidagi quyidagi o'gitlar insonlarni ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi buyuk kuchdir.

Inson uchun aql, eshik ochuvchi, axloqiy yo'l ko'rsatuvchidir. Etuk axloq va odob insonning ziynati, donolarning fazilatidir. Aqlli kishi axloqli bōlisagina, xalqiga, mamlakatiga, yoru do'stlariga naf keltiradi. Alisher Navoiy o'zining aqli, ibratli axloqi, odobi bilan mamlakatiga, xalqiga hech qachon so'nmaydigan buyuk meros qoldirdi. U o'zi hayot bo'lgan davrlardayoq, aqli va axloqi bilan xalqiga, mamlakatiga ko'p foyda keltirdi, do'sti Sulton Husayn Boyqaroga davlatni adolat mezonlari asosida boshqarishga yordamlashishga intildi. Navoiyning dono maslahatlari tufayli u ko'p falokatlarni oldini oldi, halokatlardan qutulib qoldi.

Aql – insonning epchillik, bunyodkorlik, insonparvarlik sifatleri majmuasidan iboratdir.

Abdulla Avloniyning yozishicha, aql-idrokning tantana qilishiga ishonmoq lozim. Chunki, "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, Ruh ishlovchi, aql boshqaruvchidir. Inson aqli ila din va e'tiqodini mahkam qilur, shariat hukmlariga buysunur"...

Rasuli Akram nabiiy muhtaram sallolohu alayhi vassalam shunday deganlar: "ey insonlar! Aqlingizga ta'voze qilingiz, Siz janobi haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz".

Allomalardan biri: "Agar aqlingni quli nafsingni jilovini ushlasa, seni yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar, har narsa ko'p bōlisa, bahosi arzon bulur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bulur", demish.

Insonda nima asosiy rol' o'ynaydi, aqlmi yoki odob degan savol hamqo'yilishi mumkin. Ularning ikkalasi ham muhim. Ikkalasini o'zida jamul-jam qilgan kishini barkamol inson, deb ayta olamiz. Hayotda bilimli, aqli hamjoyida aziz, aql va odob kishilarni qalban bir-biri bilan bog'laydigan ruhiy zamin desak hamxato bo'lmaydi. Donolar aytganidek: "Kishida odob bōlisa, ilm hambo'lishi mumkin. Odob aqlga bog'liq narsa. Aql ustiga odob qo'shilsa, nur ustiga nur bo'ladi. Ulug'lik-aqlu odob bilan, boylik qadri saxovat bilan, quvvat qadri bahodirlik bilan oshadi".

Aql va odobning uzviy birlikda ekanligini bir mulohaza qilib ko'raylik. Aql, idrokka nisbatan dastavval kishining xulq-atvori ko'zga tashlanadi. Psixologlarning fikricha, birinchi taassurot shunchalik kuchliki, u bundan keyingi tasavvurlarga zamin bo'ladi. Ammo har doim hamshunday bo'lavermaydi. Oldin ko'z ma'qullaydi. Mehr ko'zda, degan gap bor xalqimizda.

Kishining aql-idroki bo'lmasa uning odobi yuzaki, sun'iy bo'ladi. Uning odamligini bilib turasiz, u odamiyligi va odamligining yo'qligidan nafratlanasiz. Xalqimizning o'zi chiroyligu so'xtasi sovuq, o'zi xunugu istarasi issiq degan naqlari hamshu ma'noni beradi. Zukko odamning qalbi

odatda pok bo'ladi. Qobiliyatsiz, xulq-atvori beqaror odamlarning yomon yo'llarga kirib ketishi hech gap emas. Odozsiz talabalarni ko'z oldingizga keltiring, o'zi talaba, ammo qilayotgan xatti-harakatlari g'ayri insoniy tarzda ko'pchilik ichida o'z hurmatini yo'qotadi, o'qibdi-yu, uqmaq, degan ibora xuddi shundaylarga nisbatan aytilgan.

Insonlarning bilimi qanchalik keng va chuqur bōlisa, u shunchalik kamtar bo'ladi. Kamtarlik-donolikning belgisidir. Dono kishilar bilganlaridan ko'ra bilmaganlari ko'p ekanini tasavvur eta oladilar. Buyuk faylasuf Suqrotning: "Men bir narsani bilaman, u hambōlisa- hech narsani bilmasligimdir",-degan fikrlarida hamshu ma'no bor. Faqatnodon kishilargagina o'zlari bilgan bilim haqiqatning so'nggi chegarasidek bōlibko'rinadi.

Kishilarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan kishilarda ilm, fanni o'rganishga, halol mehnat qilib hunar -kasbni egallashga, malaka oshirishga ehtiyojlari hambo'lmaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berganlar. O'zbek milliy pedagogikasidagi ta'lim-tarbiya ishlari tizimida hamaxloq va aql tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

Ma'rifatparvar alloma A.Avloniy inson aql-zakovati va ma'naviy kamolotining yo'llari ustida to'xtalib, shunday deb yozadiki: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz mevasiz daraxt kabidur".

U ilmning ahamiyatini nazariy tomonini ko'rsatibgina qolmay, balki amaliy faoliyat uchun hayotiy zarurat ekanligini hamta'kidlab o'tadi: "Ilm bizni jaholat qarong'usidan qutqarar, madaniyat, insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur. Yaxshi xulq odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz,sarovatimiz, mayishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

Aql-zakovat, ehtiyoj hamob'ektiv zaruriyatni ongli tushunish bilan bog'liq bo'lgan ma'naviyatdir, ya'ni anglagan maqsadlar tizimidir. Binobarin, har bir davrning ehtiyojlari ham, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotihamilmiy tafakkuri salohiyati darajasi bilan belgilanadi.Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi.

Har tomonlama etuk, barkamol avlodni etishtirishda mehnat tarbiyasining roli va o'rni beqiyos kattadir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli, mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotning negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o'z aqlini irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi, shaxs sifatida shakllanishi mumkin. Farzandlarimiz mustaqilO'zbekistonimizning bo'lg'usi quruvchilaridir. Shu sababli kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa hujjatlarda ularni mehnatga qay darajada tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Shunday ekan, mehnat farzandlarimiz uchun hamzarurat, hamburch bo'lishi, buning uchun uyda ham, o'quv yurtlarida hammehnat qilish uchun sharoitlar yaratilishi lozim. Agar bola kichikligidan mehnat qilishga o'rgatilsa, o'yindan mehnat qilishga hech bir qiyinchiliklarsiz o'tadi. Bu jarayonda kattalarning ibrati muhim rol' o'ynaydi.

Farzandlarimiz kichik yoshdan boshlab maishiy mehnat, aqliy mehnat, jismoniy mehnat va ijtimoiy mehnatda ishtirok etadi. Mehnat tarbiyasida yutuqlarga erishishda yoshlarni mehnatga hamruhan, hamamaliy jihatdan tayyorlash lozim. Shuning uchun ularning yoshi va imkoniyatlariga mos mehnat turlarini bajarishga jalb qilmoq lozim.

Mehnatga psixologik, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik kabi axloqiy irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi, o'quvchilarda jamoatchilik bilan birga mehnat qilish ko'nikmalarini hosil qilish lozim. Chunki inson butun hayoti davomida ko'pchilik bilan mehnat qiladi. Bu jarayonda o'quvchida mehnat qilish madaniyatini o'stirmoq darkor.

Yoshlar mehnati dastlab oilada, keyin esa o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonda ayniqsa akademik licey kasb-hunar kollejarini o'rni va ahamiyati beqiyos kattadir.

Ta'lim tōg'risidagi qonunning 13 - moddasida ta'kidlanganidek, "kasb-hunar kollej o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorati va malakasini chuqur rivojlantirishni tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb -hunar o'quv yurtidir."

Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi.

Avvalo, ta'lim jarayonida mehnat haqidastlabki bilim va tasavvurlarga ega bo'ladilar, o'qish hammehnat ekanligini tushunib oladilar. O'quv rejasiga kiritilgan mehnat darslarida esa, mehnat qilish malakalarini egallaydilar. Bu jarayonda o'z mehnatlarining natijasini ko'rib zavqlanadilar va yanada yaxshiroq mehnat qilishga harakat qiladilar.

Mehnat qilish jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati ijtimoiy foydali mehnat turida faol ishtirok etadilar va chiniqadilar. Pedagogika fani mehnat tarbiyasini tashkil qilishda bir nechta talablar qo'yadi:

Jumladan, mehnatning ijtimoiy axloqiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turli kasblar haqidama'lumotlar berib borilishi, mehnat ahllari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar.

Yuqoridagi fikrlar quyidagicha ilmiy-amaliy fikr va mulohazalarni keltirib chiqaradi.

Mehnat tarbiyasi oilada g'oyat ko'lamdor holdaamalga oshiriladi. Oila boshliqlari va bolalarning birgalikdagi mehnatini tashkil qilish nihoyatda katta imkoniyatlarga ega.

Kasb tanlash jiddiy va mas'uliyatli ishdur, o'z hayot yo'llarini jiddiy sur'atda belgilab borish jiddiy masala. Buning uchun maktablardagi politexnika sistemasida to'garaklar muhim o'rin tutadi, fan to'garaklarida bolalar politexnik saviya, bilimlarini kengaytiradi, kasb tanlashga tayyorlanishadi. Maktabda yuqori sinf o'quvchilari uchun "ishlab chiqarish asoslari: kasb tanlash" kursi o'qitiladi. Kasbga yo'naltirish umumiy o'quv tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ota-onalar hammanfaatdor. Shuning uchun hamo'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bo'lishi lozim. Mehnat tarbiyasi iqtisodiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor munosabatlari sharoiti yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhim. Zero, bu to'g'rida g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda, pedogolarimiz tadqiqotlar olib bormoqda. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqidafikrly olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolari sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlash yotadi. Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badanni tarbiya qilish zarurdir.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport – har qanday yoshda hamqaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning vositasi hisoblanadi.

Fan va texnika taraqqiyotimutaxassislikka nisbatan yuksak talablar qo'ymoqda. Bu hol o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, unga o'rgatish yo'l va vositalarini takomillashtirishni taqazo qilmoqda.

Inson faoliyatining asosiy turi mehnat, atrof-muhitni o'zlashtirish, bunyod qilish orqali hamijtimoiy, hamshaxsiy ehtiyojlarini qondiradi. Shuning uchun mehnatga murakkab ijtimoiy hodisalar sifatida qaraladi. Mehnat faoliyati o'qish jarayonini hamo'z ichiga oladi. Shu jarayonda avlodlar to'plagan bilimlarni ko'nikma va malakalarni egallash yordamida mehnat faoliyatiga tayyorlanadilar.

ÖzbekistonRespublikasi xalq ta'limi Milliy koncepciyasi materiallarida, umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida hamkatta e'tibor berildi. Mustaqillik milliy kadrlar tayyorlash ko'lami va sifatini oshirishni taqozo qilmoqda. Yirik korxonalarda milliy kadrlarning kamligi etuk mutaxassislarning migraciyasi ushbu muammoga davlat nuqtai nazaridan jiddiy yondashishni talab etmoqda.

Mehnat faoliyati motivlari ehtiyojlari turiga qarab tabiiy va ma'naviy turlarga ajratiladi. Shu motivlarga qiziqish hamkiradi, hamda shaxs diqqatini mehnat ob'ektlariga yo'naltirishni egallashga qaratilgan bilish faoliyati qaror topadi.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan ifodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi. Barcha qiyinchilik va sinovlarga bardosh bera oladigan yigit-qizlarga mazkur tanlangan kasbga nisbatan yarog'li deb topiladi. Mehnat ta'limi esa xuddi ana shuning amaliy tomonini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega. Ta'limni oqilona, optimal yo'l bilan tashkil qilish va olib borish turli yoshdagi maktab o'quvchilarida mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirib, kasb-hunarga nisbatan qiziqish hissini uyg'otadi.

Barkamol avlodni jismoniy barkamolsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu tarbiyaning bosh maqsadi jismonan chiniqqan, mard va sabotli, qat'iyatli va vatanparvarlarni kamol toptirishdir.

Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan 2000 yilni "Sog'lom avlod" yili deb e'lon qilinishi bu tarbiyaga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Prezidentimiz: "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi", deb ta'kidlaydi. Yurtboshimiz fikrini davom ettirar ekan, eng avvalo har bir odam o'z sog'lig'i haqidaqayg'urishi, har bir oila o'zidan sog'lom nasl, sog'lom zurriyot qoldirishni o'ylashi zarur. Agar farzand sog'lom, oqil, iymon-e'tiqodli bõlisa, ota-onasiga faqatrahmat keltiradi. el-yurt nazaridan hech qachon chetda qolmaydi deb uqtiradi. Jismoniy barkamollik tarbiya tizimida muhim o'rinni egallaydi va boshqa tarbiyalar bilan birga amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya o'z oldiga qator vazifalarini qo'yadi. Jumladan, organizmni chiniqtirish, sog'liqni mustahkamlash va rivojlantirish, bolalarda yangi jismoniy harakat turlarini hosil qilish va qurollantirish, bolaning yoshiga, jinsiga chiniqqanlik darajasiga mos keladigan jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish va o'z sog'lig'iga ongli munosabatda bo'lishni tarbiyalashdan iborat. Bu vazifalarni xal qilishda jismoniy tarbiya aqliy, estetik va mehnat tarbiyalari bilan hamkorlik qiladi. Insonning sog'lom va barkamol o'sishi turli omil va vositalarga bog'liq. Avvalo nasl toza, sog'lom bo'lishi kerak, shu sababli Prezidentimiz sog'lom ota-onadan albatta sog'lom farzand tug'ilishini alohida ta'kidlaydi. Qolaversa, yashash jarayonida sanitariya- gigiena omillariga amal qilishi, tabiatdagi sog'lomlashtiruvchi omillar, ya'ni quyosh, havo va suv ta'siridan o'rinli foydalanish va jismoniy mashqlardan foydalanishni taqozo qiladi.

Yosh avlodni jismonan chiniqtirishda o'quv yurtlari rejasi bo'yicha o'tiladigan jismoniy tarbiya darslarining roli va ahamiyati beqiyos kattadir.

Bu darslar mutaxassis o'qituvchilar tomonidan o'quv yurti dasturlari bo'yicha olib boriladi va tibbiyot xodimlari nazoratida bo'ladi. Jismoniy tarbiya oldidagi vazifalarni hal etishda ertalabki gimnastik mashg'ulotlar, fikul'tminutlar, fizkul'tura bayramlari, salomatlik kunlari munosabati bilan uyushtiriladi. Bularga ota-onalar hamtaklif qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnat tarbiyasi nima uchun kerak?
2. Kasb tarbiyasi mezonlari.
3. Mehnat etikasi va estetikasi nima?
4. Jismoniy tarbiya mohiyati.
5. Aql nima va uni qanday tarbiyalash mumkin?
6. Donolik nima?
7. Aqlni tarbiyalash mezonlari.

6-MAVZU

Ta'lim jarayoni va mutaxassislik. Ta'lim tamoyillari (prinsiplari)

Reja:

1. Ta'lim tamoyillarining mohiyati.
2. Ta'lim tamoyillari tasnifi.
3. Ta'lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari).
4. Ta'lim tamoyillarining o'zaro bog'liqligi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar:

Didaktika, ta'lim jarayoni, mohiyati, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantirish funkciyalari, o'qituvchi faoliyati, ilmiy-uslubiy asoslar. Ilmiylik, nazariya va amaliyot uyg'unligi, ongillik, faollik, tarbiyalovchilik, ko'rgazmalilik, izchillik, insonparvarlik, shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

Ta'lim jarayonining ilmiy, nazariy uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika shug'ullanadi. **Didaktika** – grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni o'qitish, o'rgatish ma'nolarini beradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati mazmun va vazifalari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlarni bayon etiladi.

Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar, avvalo o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lishi, psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlab olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ta'limning asosiy vazifasi shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni: ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shallantiriladi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan ijodiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Ta'lim o'quvchi-talabalarning o'zlashtirish, o'zida bilish qobiliyatlarini hamda fikrlash operaciyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv jarayon emas, balki o'quvchiga noma'lum faol, ijodiy faoliyat, mehnat jarayonidir. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi bilmaslikdan bilishgacha, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik jarayonlar faol ishtirok etadi va amaliyotda sinab ko'riladi.

O'qituvchi, o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonni to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olishi zarur.

O'quvchi va talabalarining erkin fikrlash qobiliyatini o'quv va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan o'stirish lozim. O'quvchi, talaba tafakkur jarayonida voqelikni tahlil qilishni va taqqoslashni, bilimlarning o'zlari uchun tushunarli sohalaridagi sabab-xulosalar chiqarishni

o'rganadilar, ya'ni oddiy, so'ngra esa ancha murakkab tushuncha hamda fikr-mulohazalar hosil qilishni bilib oladilar.

Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga hamrahbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda o'zlashtirib olinishga erishiladi. Materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari tōg'risida hamg'amho'rlik qiladi.

O'qituvchi o'quvchi-talabani bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilishi lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

1) *Ta'limiy maqsad* – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq qila olishdir.

2) *Tarbiyaviy maqsad* – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida ōziningshaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

3) *Rivojlantiruvchi maqsad* – ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi- talabada mustaqilishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi. Ta'lim turli bosqichlarda amalga oshadi.

Birinchi bosqich – o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi-talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, ōziningbilish vazifalari nimalardan iborat ekanini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich – ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich – yangi bilimlar, mashqlar, mustaqilishlar, o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqichda – ular o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi etakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bōlisak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

1) o'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi;

2) ularda dunyoqarashni, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi;

3) yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali kishilar bōlibetishishlariga, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishida ko'rinadi. Bundan tashqari o'qituvchi, o'quvchiga o'z faoliyatining ob'ekti sifatida qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

Bundan tashqari o'qituvchi ta'lim jarayonida har bir o'quvchi-talabani bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olish, ta'lim natijalarini dastlabki va keyingi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash kabilar. Xullas, o'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim.

Shundagina o'qituvchi, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda o'qituvchi va o'quvchilar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun-qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

O'qitish bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida, insonning tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonunlari asosida sodir bo'ladi. Shu sababli shaxsni o'qitish, tarbiyalash, barkamol avlod qilib etishtirish jarayonida bir butunlikda amalga oshirish zarur. O'qituvchi qachonki ta'lim tamoyillaridan xabardor bo'lgandagina uni samarali boshqarish, o'qitishning samarali usullarini tug'ri tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun hamo'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holdabir sistemani tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi-talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqilfikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tadbiiq etish muhim muammolardan biridir.

O'quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim, o'quv fanlari hamilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyotidarasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa talaba yoshlarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan.

Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga hamaloqadordir. Shunday ekan, bilim, ilm-fan bilan o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlardan foydalanmoq lozim.

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning etakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi-talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub mohiyatini tushunib etadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limdagi onglilik va faollik, o'quvchidagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqilfikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi.

O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, o'quvchi talabaning fikr yuritishi hamshunchalik aniq va ravshan bo'ladi va o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi hamoshadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqilfikr yuritishi, mustaqilsuratda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishga e'tibor bermog'i lozim. Yoshlardagi o'qish istagi ta'lim jarayonining zaruriy va mantiqiy qismidir. Shunday ekan, ta'limning samaradorli o'qituvchining o'quvchilarni o'qishga izchil va muntazam qiziqtirib borishiga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi, ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim.

Ta'lim jarayoni, uning mazmuni, unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim, shaxs shakllanishining asosiy manbaidir.

O'qitib, tarbiya berish deganda bizda ta'lim va tarbiyaning bir-biridan ajralmasligini tushunamiz. Shunday ekan, maktab obro'si, o'qituvchi obro'si, avvalo darsda shakllanadi. Til va adabiyot darsimi, matematika darsimi har doim ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ko'rabilish, tarbiya usullaridan foydalanish lozim.

O'quvchi-talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi ham, irodasi va axloqiy sifatleri, imon-e'tiqodi va qobiliyati hamo'sib rivojlanib boradi.

Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda o'qituvchi avvalo ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqtira olishga bog'liqdir. Shu bilan birga, o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro'-e'tibori hammuhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil etish zarur. Ham eshitish, hamko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab etishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga mos kelishi, o'quvchi-talabaning yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi, hamda ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalarini qo'llash va

ishlab chiqish lozim. Ko'rsatmali materiallar o'quv predmetlarining xarakteri va mazmuniga qarab turli-tuman bo'lishi mumkin. Jumladan:

a) buyum va narsalarni asli tabiiy holda ko'rsatish (o'simliklar, hayvonlar, gerbariy va kolleksiya, laboratoriya mashg'ulotlariga namoyishlar, ekskursiyalar chog'ida ko'rsatiladigan buyum, narsalar).

b) tasviriy ko'rsatmali materiallarni namoyish qilish (rasmlar, fotosuratlar, diafil'mlar va diapozitivlar, kinofil'mlar va boshqalar).

v) narsa va buyumlarni shartli belgilar orqali ko'rsatish (o'quv xaritalari, sxema, jadval va maketlar).

g) ovozi ko'rsatmali materiallar (gramplastinka, magnitofondagi yozuvlar, ovozi kinofil'mlar).

Ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarga faqat bilim berishda o'quvchi-talabning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olganda erishish mumkin. Shuning uchun o'qituvchida bolalar psixologiyasidan tegishli bilimlar etarli bo'lishi lozim. Dars jarayonida shu sinf o'quvchilariga tegishli umumiy xususiyatlarni va har qaysi o'quvchiga tegishli xususiyatlar ta'limning har bir bosqichida e'tiborga olinishi darkor. Bunga erishish uchun o'qituvchi o'quvchilarni kuzatishi va ularning ruhiy olamini o'rganishi lozim. Faqat shundagina o'quvchidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari aniqlanadi va ularni bartaraf qilish uchun izlanishlar olib boriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'limning ilmiylik va nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyili.
2. Ta'limdagi ongillik va faol harakatda bo'lish.
3. Ta'limning tarbiyalovchilik tamoyili.
4. Ta'lim jarayonining ko'rsatmali bo'lishi,
5. Ta'lim jarayoni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyili.
6. Didaktika srzining ma'nosini ayting.
7. Ta'limning qanday maqsadlarini bilasiz?
8. Ta'lim bosqichlarini tushuntiring.
9. Ta'lim vazifalari nimalardan iborat?

7-MAVZU

Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari

Reja:

1. Ta'lim shakllarining tarixan paydo bo'lishi.
2. Dars - ta'limning asosiy shakli.
3. Ta'lim -shaxs rivojlanishining asosiy omili.
4. Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar:

Metod (usul), vosita, uzviylik, amaliy, srz orqali ifodalanuvchi, ko'rgazmali. Mashg'ulotlar, ma'ruza, laboratoriya ishlari.

Ta'lim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bõlibxizmat qiladi. O'qituvchining ma'lum fan ilmini o'quvchilar ongiga etkaza olish mahorati, shu o'quvchilarni bo'lg'usi hayot yo'llarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, ta'limning mohiyati inson kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funkciyasiga qarab tanlanadi. O'qituvchi õziningshaxsiy sifatлари: komilligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi, ta'limiy maqsad bilan tarbiyaviy maqsad mutanosibliги, fan asoslari va g'oyalarini chuqur bilishi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi talab qilinadi.

Bunday o'qituvchilardan bilim olayotgan talabalar nimani bilish kerak ekanligini idrok qilib beradilar. Nazariy bilimlar amaliyotga ko'chirilganda, uni aniq his qilib, tasavvur qilib o'zlari amalda bajaradilar, masalalar echadilar. (Iqtisodiy, matematik, pedogogik. So'ngra bilimlari mohiyatini tushunib oladilar. Shu mavzu bo'yicha aniq ko'nikmaga ega bo'ladilar. Shu asnoda boshqa fanlardan hambilim olish va amaliy mashg'ulotlar evaziga ularda ko'nikmalari boyib boradi.

Talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatlariga qarab sekin-asta amaliyotga qo'llay boshlaydilar. Talabalar bilan bo'lgan muloqotda, ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Ta'lim berish jarayonida tarbiyalayotganligimizni unutmashimiz lozim. Suxandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'qituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon qilish va uni tamasiz etkaza olish xususiyatlari o'quvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmashlik kerak. Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar)ni har qanday muammoni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- so'z orqali ifodalanadigan metod;
- ko'rgazmali metod;
- amaliy metod.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi.
- laboratoriya ishlar metodi.
- mustaqilishlar metodi.
- muammoli evristik modellashtirish metodi.
- ilmiy tadqiqot metodlari.
- rqitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi.
- rqitishning induktiv va diduktiv metodi.
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: – soʻz orqali uzatish va informaciyani eshitish orqali qabul qilish metodlari (ogʻzaki metodlar: hikoya, maʼruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: – oʻquv informaciyasini koʻrgazmali uzatish va koʻrish orqali qabul qilish metodlari (koʻrgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: oʻquv informaciyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni echish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Taʼlimning ragʻbatlantirish metodlari:

1. Taʼlimga qiziqishni ragʻbatlantirish metodi.
2. Taʼlimga burch va masʼuliyatini ragʻbatlantirish metodi.

Xuddi shuningdek, taʼlimda nazorat va oʻzini-oʻzi nazorat qilish metodlari quyidagilar.

1. Ogʻzaki nazorat va oʻz-oʻzini nazorat qilish.
2. Yozma nazorat va oʻz-oʻzini nazorat qilish.
3. Laboratoriya va amaliy nazorat va oʻz -oʻzini nazorat qilish metodi.
4. Test nazorati.

Bu metodlardan talabalarda bilish faoliyatini, qabul qilish, anglash va amalda qoʻllash faoliyatini shakllantirishda foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi.

Ushbu tarzdagi metodni qoʻllashda oʻqituvchi soʻz vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. Oʻquvchilar esa tinglashadi, eslab qolish, anglab etish orqali uni faol qabul qiladi va oʻzlashtiradi

Mavzuning asosini tushuntirish va uqtirishda hikoya usulidan foydalaniladi. Oʻquv materiallari mazmunini ogʻzaki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish koʻzda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun, hikoya metodini qoʻllash samarali natija beradi. Bu metod orqali mavzuga xizmat qiladigan maʼlumot va voqealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saqlashni jadallashtiradi. Hikoyani bayon qilish, uqtirish metodlarini samarali qoʻllash shartlari: rejani qunt bilan oʻylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini taʼminlash, misollar va hikoyalarni muvaffaqiyatli tanlash, tushuntirish va uqtirishda zaruriy emocionallikni tanlash darkor.

Hikoya bir necha turga boʻlinib, hikoya muqaddima, hikoya bayon, hikoya xulosalarga boʻlinib, ular mavzuni yoritishga xizmat qiladi.

Mavzuni tushuntirishda ogʻzaki bayon qilish, tushuntirish yoki biror bir lavhani koʻrsatish, (illyustraciya)ni koʻzda tutib, hikoyadan oʻzininghajmi kattaligi, mantiqiy qoʻyilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirish orqali mavzu maqsadiga erishiladi, hikoya qilish mavzuning maqsadini bir qismiga xizmat qiladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi atroflicha oʻylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, u oʻquvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni oʻzlashtirishga olib keladi.

Taʼlimning muammoli-qidiruv metodlari; tizimni soʻz orqali ifodalash, koʻrgazmali va amaliyot metodlari yordamida foydalaniladi. Taʼlimni muammoli oʻqitish jarayonida oʻqituvchi talabalarning bilish faoliyatini qoʻzgʻatadigan, faollashtiradigan, ongni charxlaydigan vazifalar beradi. Talabalar mustaqilholdayoki oʻqituvchining yordamida uni echish, hal qilish uchun ijodiy izlanadilar. Muammoli oʻqitish yoki muammoli masalalarning echilishini talab qilish oʻquvchilarning egallagan ilmiy bilimlariga hosil qilingan koʻnikmalariga asoslangan holdaizlansa yoki olingan bilimlarini xotirlasa, bemalol oʻzi echa oladigan qilib tuzilish kerak. Aks holda, masala talabaning ulgurmagan bilimlariga hamasoslanib tuzilsa, u holdatalaba oʻziga ishonmay qoladi, oʻzidagi bilimga ishonchi yoʻqoladi, har qanday ilmiy taʼlim talaba uchun muammolidir.Chunki talabaga hozirgacha nomaʼlum boʻlgan yangilik bilan tanishtiradi. Muammoli oʻqitish talabaning fikrlash faoliyatini oʻstiradi, har narsani bilishga qiziqish uygʻotadi. Fahm-farosatli, mustaqilijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Pedagogik masala:

Ota oʻz oʻgʻlining etuklik attestatini olishi va 16 yoshga toʻlishi munosabati bilan ziyofat berdi. U oʻziga va oʻgʻliga hamqadah toʻldirdi, oʻgʻlini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab oʻgʻliga

qadah uzatadi. Siz oila a'zolarining bu voqeaga bo'lgan munosabatlarini qaysi birini to'g'ri deb o'ylaysiz?

a) dadasi – o'g'lim muborak yoshing bilan tabriklayman, shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik!

b) buvisi – jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma, hech qachon ichmasin, martabasi ulug' bo'lsin, baxtli bola bo'lsin.

v) bobosi – mayli, dadangni so'zi erda qolmasin, do'stlari oldida izza qilma, qadahni urishtirib, bir ho'plab bera qol.

g) oyisi – o'g'lim, dadang senga qadah uzatib, bu spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko'rmoqchi bo'ldi.

Bu tarzda test savollari muammoli tarbiyaviy masala, o'quvchining aqliy va axloqiy bilimni kengaytiradi. Ongini, tafakkurini charxlaydi. Insonlarga bo'lgan muomala madaniyatini takomillashtiradi. Shunga o'xshash masalalarni muttasil echib borgan, aqliy va axloqiy bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lgan talaba komillikka erishib boradi.

Ma'naviy-ijodiy metodlar

Inson ma'naviyatining shakllanishi juda murakkab jarayon. Insonning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda oila, atrof-muhit, jamiyat katta rol o'ynaydi. Ota-onaning mehri, atrof-dagilarning mehri, ularni olqishlari bolani mustaqilfikrlashga va mustaqilish boshlashga ishonchini uyg'otadi. Ustozlar, ota-onalar boladagi bu harakatni, ishonchni sezgandan boshlab, ularga sharoit yaratish va ularni to'g'ri yo'naltirishlari lozim. Ota-ona va ustozlar orasidagi tarbiya uzviyligi yoshlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Sen o'zing uddalay olasan, bunga qurbing etadi, deb ishonirish va bu ishonchni "Ma'naviy-ijodiy metod" orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu metod uch bosqichda amalga oshiriladi:

a) o'quvchilarda bilishga qiziqishni uyg'ota bilish;

b) o'quvchilarning egallagan bilimiga va tajribasiga asoslangan holdamasala qo'yish, hamda ularga suyanib masalalarni tahlil qilish;

v) o'rganish kerak bo'lgan muammo ustida mustaqilfikir yuritib xulosa olishga erishish.

Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish jarayonida talabalar, insonning boy xazinasini uning o'zida yashiringanligini tushunadilar. Faqatbuning uchun o'qituvchi ulardagi qiziqishni, yashiringan iqtidorini angalay bilishi kerak.

Ilm olish, odatiylik, aqlni peshlash, o'z ustida ishlash, hikmatlarni bilish, kamtarlik, ma'rifatli bo'lish kabi fazilatlariga faqatmehnat qilish va bilim olish, o'qib-o'rganish, hayotni kuzatish orqali erishish mumkin.

O'quv ma'ruza metodi: o'quv materialini og'zaki bayon qilishni ko'zda tutadi, hikoya metodidan o'zininghajmi kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi. Hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informaciyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarni fikrlarini faollashtirish usullari, argumentlash, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalardan foydalaniladi.

Suhbat metodi: Og'zaki bayon qilishning asosiy turlaridan biri. Tarkibida eng ko'p qo'llaniladigan samarali usullardan biridir. Ko'pincha bu usul savol-javob usuli hamdeb yuritiladi. Dars berish jarayonida o'tilayotgan mavzu yuzasidan kirish asosiy va yakunlovchi qismlarda suhbat, savol-javob metodi qo'llaniladi. Suhbat metodida atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari: ular shartli ravishda ikkiga bo'linadi.

1. Illyustraciya metodi: – plakat, xarita, doskadagi rasm, olimlarning portretlari, suratlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi.

2. *Namoyish qilish metodi* – asboblari, tajribalar, texnik qurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish metodiga bog'liq kinofil'mlar va diafil'mlar hamkiradi.

Ta'limning amaliy metodlari: yozma mashqlar, ona tili va chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha topshiriqlarni bajarish mashqlari kiradi. Xuddi shuningdek, laboratoriya tajribalari, ustaxonalarda, o'quv-ishlab chiqarish cexlari, o'quvchilar brigadalarida mehnat topshiriqlarini bajarishlari ham ta'limning amaliy metodidir.

Ta'lim vositalari: ta'lim maqsadini amalga oshirish yo'lida xizmat qildirayotgan metodlarni muvaffaqiyatli chiqishida ishlatiladigan o'quv asboblari. Ular issiqlik sig'imini o'lchash asbobi, komp'yuterlar, eHMLar, logorifm lineykasi, apparat turlari, turli xil o'quv asboblardan tashkil topadi.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda, umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holdapaydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh-guruh qilib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, o'qituvchi tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqargan.

Shu davrga kelib o'qitishning maxsus tashkiliy shakllari paydo bo'la boshlaydi. Buning natijasida sinf-dars tizimi paydo bo'la boshlaydi. Xalq orasida hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bolibfaoliyat ko'rsatdi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bolib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Pedagogika tarixida, ta'lim tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblangan. Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) xizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Ya.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida, o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil qilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishini, guruhlardagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plash, materialni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv reja, dastur, darslik va qo'llanma) asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

1. Harbir sinfda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim.
2. Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.
3. Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

4. Dars, o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi va ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmash kerakki, o'quv yurtlarida ta'lim ishlari faqatsinf-dars shaklida olib borilmasdan, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida ham olib boriladi. Bu mashg'ulotlar sinfdan va maktabdan tashqarida fakul'tativ mashg'ulotlar, to'garaklar, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Dars – ta’limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo’lishi, bilimlar mustahkam o’zlashtirilishi, o’quvchi-talabaning shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holdatashkil etilishi dars oldiga qator didaktik talablarni qo’yadi. Jumladan:

1. Harbir dars aniq maqsadni ko’zlagan holdapuxta rejalashtirilmog’i lozim. Bu jarayonda o’qituvchi darsning ta’limi va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya’ni qanday boshlash, qanday tamomlash ko’rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

2. Harbir dars aniq g’oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo’lishi lozim. O’qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog’i lozim.

3. Harbir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holdaamaliyot bilan bog’lanmog’i, ko’rsatmali vositalar bilan jihozlanmog’i lozim.

4. Harbir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanilgan holdatashkil etilishi lozim.

5. Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

6. Dars jarayonida o’qituvchi va o’quvchi o’zaro faol munosabatda bo’lishi lozim, o’quvchi talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.

7. Mashg’ulotlar butun sinf bilan va har bir o’quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holdaolib borilish kerak.

8. Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma’naviy merosidan, ma’naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

9. O’tilayotgan mavzuning mazmuniga bog’liq holdamustaqilyurtimizdagi o’zgarishlardan o’quvchi talabalarni xabardor qilish.

10. Darsda Prezidentimiz I. Karimovning ta’lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo’lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga qarata aytgan murojaatlaridan o’z o’rnida foydalanish.

Ta’lim nazariyasi va amaliyotida dars turlari va ularning tuzilishiga hamalohida muammo sifatida qaraladi va o’rganiladi.

Dars bilim, ko’nikma va malakalar bilan o’quvchilarni qurollantirishda asosiy rol’ o’ynaydi. Shu sababli o’quv mashg’ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o’tish uchun sarflanadi.

Ta’lim tizimida tajribadan o’tgan dars turlari quyidagilardan iborat:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

2. O’quv materiallarini mustahkamlash.

3. Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darslari.

4. O’quvchilarning o’zlashtirishini nazorat qilishi va baholash darslari.

5. Dars turlari, uyg’unlashgan darslar.

Ta’lim jarayonida eng ko’p qo’llaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilishi darsidir.

Bu darsning tuzilishi quyidagicha :

1. Darsni tashkil qilish.

2. Yangi bilimlarni bayon qilish.

3. Yangi bilimlarni mustahkamlash.

4. Yangi bilimlar ustida mashq o’tkazish.

5. Yangi bilimlarga bog’liq uy mashg’ulotlari berish.

6. Darsni yakunlash.

Dars turlarining o’zgarishi bilan darsning tuzilishida hamo’zgarishlar bo’ladi. Masalan, dars turlari uyg’unlashgan darslarida darsning hamma elementlari mavjuddir:

1. Darsni tashkil qilish.

2. Uy topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va baholash.

3. Yangi mavzuni bayon qilish.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash.

5. Uy topshiriqlari berish.

6. Darsni yakunlash.

Ta'lim tizimida, takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari hamko'p qo'llaniladi.

O'qituvchi dasturning ma'lum bir qismi, yirik mavzular o'tib bo'lingandan so'ng bunday darslar uyushtiriladi.

Bu dars bilimlarni oraliq nazorat orqali baholashda hamxizmat qiladi.

Harbir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir. Bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarni darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanliklarini o'rganish darkor. Shundan so'ng, mahoratli pedagog fursatni qo'ldan bermay, shogirdlari diqqatni chalg'itmay, darsning asosiy qismini boshlab yuboradilar, chunki sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash lozim. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bōlisa, dars mavzusi e'lon qilinadi. Rejada mo'ljallangan o'quv materiali o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak.

Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat izlanishlar orqali o'z yo'lini topa oladilar.

O'quv mashg'ulotlarining sinfdagi shakli darsdan tashqari yana qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud, bo'lib, bular amaliy-tajriba mashg'ulotlar, qo'shimcha darslar, fakul'tativlar, ekskursiya kabilardir.

Bular darsda berilgan bilimlarni to'ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog'lash uchun uyushtirilgan qo'shimcha mashg'ulotlardir.

Bulardan tashqari o'quv yurtlari tajribasida fan to'garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan hamfoydalanmoqda.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud.

Jumladan: ikki bosqichli oliy ta'lim tizimida o'ziga xos ta'lim shakllari mavjud, bularga ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq ma'ruzalarida qatnashish, ma'ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar oliy ta'limning ko'p qirrali yo'nalishlari va shakllaridir.

Oliy ta'lim tizimida ma'ruza o'quv jarayonining hamusuli, hamshakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylanadi. Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'qituvchi har bir ma'ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim. Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida hamta'limiy, hamtarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llardan biri – o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida do'stona, faol munosabatlarni tiklab olinishdan iborat.

Bundan tashqari dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi va talabalarning o'quv jarayondagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga hambog'liq. Shunday ekan, ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida o'rinni foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagoglik madaniyati, o'z predmetini puxta bilishligi va o'quvchi talabalar bilan umumiy til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Dars va uning turlari haqidatushuncha bering.
2. Darsni tashkil qilish va uning bosqichlari.
3. Ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning yana qanday tashkiliy shakllarini bilasiz?
4. Metod srzining manosini tushuntirib bering?
5. So'z orqali ifodalanuvchi metodlar?
6. Ta'limning amaliy metodlari.
7. Ko'gazmali metodlar.

8-MAVZU

Ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Boshqarish tizimi va ishlab chiqarish

Reja:

1. Pedagogik boshqarish tushunchasi.
2. Ta'lim tizimini boshqarish.
3. Ta'lim-tarbiyani boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari.

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar:

Ta'lim tizimi, boshqaruv prinsiplari, umumiy o'rta maktab, kasb-hunar ta'limining rivojlanishi, rahbarlik prinsiplari, ma'naviy yangilanish, milliy ong, ishlab chiqarish, ta'lim tizimi, boshqaruv prinsiplari, umumiy o'rta maktab, kasb-hunar ta'limining rivojlanishi, rahbarlik prinsiplari, ma'naviy yangilanish, milliy ong, ishlab chiqarish.

Xalq maorifini boshqarish davlatimiz siyosatining bevosita ifodasidir. Umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limining rivojlanishi ularning maqsad hamda vazifalarini tobora yaqinlashtirib, birlashtirmoqda.

Boshqaruv organlari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash taraqqiyotiyagoga davlat siyosatini amalga oshirishlari, etilgan masalalarni o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta'minlashlari kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, o'z vatani va xalqini manfaatlariga sadoqatli yorqin shaxslarni voyaga etkazishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga erishish umumiy demokratik yangilanishlar jarayoni, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirish bilan bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, hayotga tadbiiq qilish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim.

Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlari, tabiiyki, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadigan murakkab jarayondir. Ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi - erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

erkinlashtirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, birinchi navbatda, yosh avlod an'analari insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonida, shunga asoslangan holda Vatan madaniyati va milliy san'atini rivojlantirish, ularning yutug'ini xorijiy mamlakatlarida targ'ib va tashviq etish, yoyish, milliy va xalqaro tanlovlar, ko'riklar o'tkazish kabi chora-tadbirlarni faollik bilan amalga oshirish ayniqsa, yoshlar badiiy ijodiyotini yanada rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. O'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi, O'zbekiston xalqlarining badiiy, falsafiy va pedagogik tafakkuri shakllanishi va rivojlanishi tarixi, etnografiya, etnogenez, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-gumanitar fanlarning barcha yo'nalishlarini yangi saviyaga ko'tarish talab qilinadi. Mazkur muammolar doirasida ilmiy izlanishlar olib borishning konseptual asoslari O'zbekiston Prezidentining "Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q" risolasida chuqur tahlil etilib, boshlab berilgan.

Ma'naviy yangilanish jarayoni milliy bayramlar, urf-odatlar, o'yinlar shaklida mavjud bo'lgan taraqqiyparvar milliy qadriyat va an'analarni qayta tiklash, ularni rivojlantirish va zamonaviy hayotga joriy etish bilan hamuzviy bog'liqdir.

Ta'lim tarbiya tizimiga rahbarlik qilish prinsiplari.

Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq. Kelajagi buyuk jamiyatning rivojlanish talablaridan kelib chiqib, maorifning o'rni va rolga yangi avlodni tarbiyalash nuqtai nazaridan qarab,

Oliy Majlis materiallarida, Prezidentimiz ma'ruzalarida, maxsus qarorlarida rahbarlikning yuqori ilmiy darajada amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo'nalishdir. Barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika nazariyasining asosiy masalalarini ta'lim amaliyotiga va fan yutuqlarini nazarda tutgan holda I.A. Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogikaning burchidir.

I.A. Karimov o'z asarlarida kelajagi buyuk *Özbekiston Respublikasining* organlarini tashkil etish, boshqarish va ularning rahbarlik faoliyatiga doir muhim prinsiplarini har taraflama mufassal ishlab chiqdi.

Ilmiylik va pedagogika fani amaliyot bilan bog'lanish prinsipi.

Bu prinsip xalq ta'limi organlari va maktabning hamma ishini *Özbekiston Respublikasi* davlatining ko'rsatmasi, fan va texnika yutuqlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlari asosida amalga oshirishni talab etadi. Chunki idora qilish uchun ishni bilish kerak. Hamma narsadan xabardor bo'lmasdan turib, to'la-to'kis bilimga ega bo'lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib, boshqarish mumkin emas. Xalq ta'limi ishlarini, maktab ishini, kasb-hunar kollejlari ishini va unga rahbarlik qilishda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun milliy mafkura, milliy g'oya, pedagogika, pedagogika tarixi, psixologiya, xususiy metodika, mantiq, etika va estetika kabi fanlar erishgan yutuqlarni muntazam o'rganib borish, tahlil qilish hamda bu muvaffaqiyatlarini keng qo'llanishi zarur.

Boshqaruv muassasalari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash taraqqiyotiyagoga davlat siyosatini muttasil etilgan masalalarini o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirish ishini ta'minlash kerak.

Demokratik markazlashgan princip.

Ta'lim tizimini boshqarishda markazlashgan rahbarlikni keng demokratiya bilan mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish, o'ziga xos xususiyatlarni va shart-sharoitlarni hisobga olish imkonini beradi.

Yuqoridan turib, bir xil andoza bichib berish demokratiya va markazlashgan rahbarlikka butunlay yot narsadir. Barcha tadbirlarda, mahalliy xususiyatlarda ishga qanday munosabatda bo'lish usullarida, nazoratni amalga oshirish usullarida, har xil yo'llarini qo'llanish asosiy, muhim bo'lgan birliklarni buzmaydi, balki bu birlikni ta'minlaydi.

Ilmiy rejalashtirish ta'limning insonparvarlik (tamoyillari), ta'limda yoshlarni shaxsiy o'quv qobiliyatini ro'yobga chiqarish va ularni rivojlantirish va boshqa prinsiplari mavjud.

Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi.

Özbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'quv ishlab chiqarish majmuasining (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblarni bilan jihozlash rag'batlantiriladi, deyiladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikda ilmiy-texnologik echimlar yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo'llab quvvatlanadi.

Ta'lim tizimini hayot bilan va mustaqil Özbekiston davlatining siyosati bilan bog'langanlik prinsipi.

Ta'lim tizimi hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog'lash prinsipi *Özbekiston* maktablari, kasb-hunar kollejlari oldida turgan barcha nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda asosiy prinsip bōlibkeldi va shunday bōlibqoladi.

Ta'lim tizimini boshqarishga siyosiy yondoshish ta'lim-tarbiya ishlaridagi hodisa, fakt va jarayonlarga mustaqil *Özbekiston Respublikasi* manfaatlari nuqtai nazaridan turib munosabatda bo'lish demakdir.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida *Özbekiston* xalqining irodasi va manfaatlarini ifodalab, kelajagi buyuk davlat qurishga va dadil qadamlar bilan bu vazifani amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berishni ta'limning asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Yoshlarni

milliy mafkura ruhida tarbiyalash, milliy ongni shakllantirish, Prezidentimizning hayoti va faoliyati timsolida, tajribasi negizida tarbiyalash zarur.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limini keng yoyilishi, miqdor va sifati jihatidan jadal o'sishi, turli xildagi ta'lim tizimi va ta'lim muassasalaridan tashqari o'quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishning juda zarurligini taqozo etadi. Social boshqarish masalalari ilmiy bilimning maxsus sohasi qilib ajratiladi. Pedagogik jarayonlarni, hodisalarni va ob'ektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bu holda pedagogik boshqarish tushunchasi qo'llaniladi.

Barcha tipdagi o'quv yurtlari, maktabdan tashqari muassasalar, xalq ta'limi bo'limlari va boshqalar asosiy boshqarish ob'ektlariga kiradi. Ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir ishlarning hammasi pirovard natijada yagona asosiy maqsadga erishishga, ma'lum darajada umumiy ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligiga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan va imon-e'tiqodli qilib tarbiyalangan kishini tarkib toptirishga qaratilgandir. Xalq ta'limi tizimi tarkibiga vazirliklar, tuman xalq ta'limi bo'limlari, maktablar, licey, kasb-hunar kollejlari kiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim t'og'risida"gi Qonunida ko'rsatib berilgan. Ular quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish:
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish:
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish:
- ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash:
- ta'lim muassasalarini akkreditaciya, pedagog, ilmiy kadrlarni attestaciya o'tkazish tartibini belgilash:

- boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish:

- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim t'og'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash:

- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash:
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot t'og'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash:

- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash:
- davlat oliy ta'lim rektorlarini tayinlash:
- ta'lim oluvchilarni akkreditaciya qilingan bir ta'lim muassasadan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash:

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim taraqqiyotiyagoga davlat siyosatini ro'yobga chiqarish:
- ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish:
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash:

- davlat ta'lim muassasalarini moliyalash Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi:

Ta'limni rivojlantirish fondlari.

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasida maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar, bog'chalarga rahbarlik qiladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi barcha universitetlarga, kasb-hunar kollejlari, liceylariga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi. Oliy o'quv

yurtlari uchun o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Xalq ta'limi vazirligi "Ta'lim haqida"gi qonunning bajarilishi, maktablarda o'quv-tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi, uning moddiy bazasi, o'qituvchilarning malakasi va kattalar ta'limining tashkil etilishi uchun javob beradilar. Xalq ta'limi vazirligida turli xil o'quv-metodika bo'limlar tashkil etiladi. Ular pedagogika jamoatchiligini xalq ta'limi bo'limlari va maktablarga yordam berishga jalb etadilar.

Tuman, xalq ta'limi bo'limlari o'zlariga qarashli maktablari faoliyatini, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holdanazorat qiladilar.

Boshqarish va rahbarlik prinsiplari

Ўzbekiston Respublikasi maktab va boshqa o'quv-tarbiya muassasalari barcha ishlab chiqarishning asosida boshqariladi.

Demokratik centralizm, rejililik va ilmiylik bu prinsiplarning asosiysidir. Demokratik centralizm prinsipi markazlashtirilgan rahbarlik demokratiya, joylarda aniq sharoitlarni (milliy xususiyatlar, u yoki bu ishlab chiqarish sohaslarining ustunligi shahar yoki qishloq, tuman va boshqalar) hisobga oluvchi tashabbuskorlikning rivojlanishi bilan birga qo'shib olib borishni nazarda tutadi.

Rejalilik prinsipi

Ta'lim va tarbiyaga oid ishlarning hammasi yuqoridan pastgacha rejalashtirishni bildiradi. Xalq ta'limining barcha sohaslarini rivojlantirish rejalari tuziladi, barcha o'quv-tarbiya muassasalarining ish mazmuni belgilanadi. Harbir maktabda perspektiv reja (reja kamida uch yillik), yillik ish rejasi tuziladi. Yillik reja maktabning o'tgan yili ichidagi ishning tahlilini, umumiy ta'limni ta'minlash (maxsus maktablarda esa bolalarni tanlab olish) tadbirlarini o'quv-tarbiya ishlarining vazifalari va mazmunini, tashkiliy pedagogik tadbirlar va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Direktorning, uning muovinarining ish rejalari alohida tuziladi.

Ilmiylik prinsipi

Ishning shunday tashkil etilishini nazarda tutadiki, bunda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini hamda ekonomika, pedagogika, psixologiya, gigiena va boshqa sohalarda hozirgi zamon fani yutuqlari hisobga olinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim tizimini boshqarish tamoyillari.
2. Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari.
3. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – Ўzbekistontaraqqiyotining poydevori. T.1997.
2. Karimov I.A. ЎzbekistonXXI asr bo'sag'asida. T. 1997.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T."Sharq". 1999.
4. Karimov I.A. "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga javoblari. 1999y, 3 fevral'.
5. Karimov I.A. "Milliy mafkuramiz, millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat qilsin". T. "Tafakkur"№2. 1998.
6. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T. 1998.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q..T. 1998.
8. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T. 1994.
9. Karimov I.A. Ўzbekistoniqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 1995.
10. Karimov I.A. "Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman". T. 2000.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyoty'li. T.1999.
12. Ўzbekiston Respublikasining "Ta'lim t'og'risida"gi Qonuni. T. 1997.
13. Ўzbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T. 1997.
14. Ўzbekistonumumta'lim maktablarining Konsepciyasi.

15. Ӗzbekiston Respublikasining Konstituciyasi. T. 1992.
16. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T. 1996.
17. A.R. Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. T. 1992.
18. A. Ibrohimov. (muallifdosh). Vatan tuyg'usi. T. 1997.
19. Kaykovus. Qobusnoma. T. 1994.
20. Munavvarov A.K. Pedagogika. T. 1996.
21. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T.1993.
22. Musurmonova O. Oila farovonligi – jamiyat taraqqiyoti mezonlari. Xalq ta'limi jur.6-son. 1998.
23. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T. 1994.
24. A. Navoiy. Mahbub ul-qulub. T. 1983.
25. Nishonaliyev U., Tursunov I. Pedagogika kursi. T. 1996.
26. Ochilov M. Universitetlar tizimida pedagog xodimlar tayyorlash muammolari. "Ta'lim tarbiya jurnali". 6-son. T. 1997.
27. Odob bo'stoni- axloq gulistoni. T. 1994.
28. Pedagogika. (T.A. Il'ina tahriri ostida). Qo'llanma. M. 1984.
29. Pahlavon Maxmud. Ruboiylar. T. 1979.
30. Pedagogika. O'quv qullanma. T. 1996.
31. Pedagogika. Kurs lekci. M. 1984.
32. Toshmurodova Q. Ta'lim-tarbiyani rejalashtirish xususiyatlari. T. 1993.
33. Yodgorov R. Oila tarbiyasida otaning o'rni. ToshDU to'plami. 1996.
34. Uzoqov H., G'oziev e., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T. 1992.
35. O'zbek pedagogikasi tarixi (qo'llanma). prof. A. Zunnunov tahriri ostida. T. 1997.
36. O'zbekim. Vatan seriyasidan. T. 1992.
37. G'aybullaev N.R. va boshqalar. Pedagogika. Universitetlar uchun dastur. T.1996.
38. G'aybullaev N.R. Ta'lim-tarbiyaning amaliy yo'nalishi. T. 1986.
39. G'aybullaev N.R. Barkamollik, mahsuldorlik-taraqqiyotkaliti. T. 1995.
40. G'aybullaev N.R., Adji-Asmanov R., Sharapov Sh. Pedagogika-reformicheskie puti sovershenstvovanie podgotovki budushix specialistov v Vuze. T. 1991.
41. G'oziev e. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T. 1994.
42. G'oziev e. Tafakkur psixologiyasi. T. 1990.
43. G'oziev e. Pedagogik psixologiya asoslari. T. 1997.
44. G'aybullaev N.R., Yodgorov R., Jdarkin L.P., Toshmurodova Q., Mamatqulova R., Axrorova Z., Ro'zimatov e. Ijtimoiy islohotlar va ta'lim-tarbiya. T. 1995.
45. Vospitanie i razvitie detey v processe obucheniya. M. 1981.
46. Yusupov e. Ma'naviyat asoslari. T. 1998.
47. Braymon Saymon. ObShestvo i obrazovanie. M.1989.
48. Frank V. Chelovek v poiskax smysla. M. 1990.
49. Soklova Ya. i dr. Metodologiya i metodi pedagogicheskogo issledovaniya. M.1989.
50. Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. T. 1987.

